

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYAT
XALQ TA’LIMI BOSHQARMASI**

**NAMANGAN VILOYAT PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR VA MA’NAVIYAT
ASOSLARI KAFEDRASI**

**“BILIMLAR BELLASHUVI”NING RESPUBLIKA
BOSQICHIDA ISHTIROK ETGAN O‘QUVCHILAR
TOMONIDAN BO‘SH O‘ZLASHTIRILGAN MAVZULAR
ASOSIDA TAYYORLANGAN
NAMUNAVIY**

DARS ISHLANMALARI TO‘PLAMI

Mazkur dars ishlanmalari to'plami umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-8 sinflari uchun tarix fanidan Davlat ta'lim standartlari va optimallashtirilgan o'quv dasturlari asosida tayyorlangan. Undagi dars ishlanmalari "Bilimlar bellashuvi"ning Respublika bosqichida ishtirok etgan o'quvchilar tomonidan bo'sh o'zlashtirilgan deb topilgan mavzular bo'yicha tuzilgan. Dars ishlanmalarda mualliflarning yangi innovatsion usullar asosida dars o'tish tajribasi aniq yo'l – yo'riqlar va dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Ushbu dars ishlanmalari to'plamidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarix fani o'qituvchilari ijodiy foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

B.Abdurahmonova - Namangan viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi, xalq ta'limi alochisi

Ilmiy ijodiy rahbar:

A.Qoriyev - Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

R.Boymirzayeva - Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrasida o'qituvchisi

Z.Abdurahmonov - Mingbuloq tumanidagi 17-sonli umumiy o'rta talim maktabi tarix fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

Ushbu to'plamdagi dars ishlanmalar xolisona yoritilganligi, keltirilgan dalillar asosli ekanligi bo'yicha mas'uliyat mualliflar zimmasida.

Ushbu dars ishlanmalari to'plami Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrasining 2014 yil 26-noyabrdagi 11-sonli yig'ilishida ma'qullangan va institut o'quv-uslubiy kengashining 2014-yil 17-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan.

Sinf: 7

Fan: O'zbekiston tarixi

Mavzu: Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu	Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar
Maqsad va vazifalar	Maqsad: Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar hamda uning oqibatlari to'g'risida bilimlar berish. Vazifalar: O'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, mavzu bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarga ega bo'lish. O'quvchilar mavzuning mazmun-mohiyatini o'zlashtiradilar. Mavzuga oid topshiriqlarni yakka va guruh holatda o'rganib, o'zlashtirishga erishadilar. O'quvchilarning yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligi nazorat qilinadi, ularning bilimi baholanadi.
O'quv jarayoni-ning mazmuni	Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga Xorazmshohlar va Mo'g'ullar davlatlari, ular o'rtasida olib borilgan savdo va diplomatik aloqalar hamda bu davrning ijtimoiy-siyosiy tavsifi haqida ma'lumotlar berish; Tarbiyaviy maqsad: Mazkur mavzuni tushuntirish orqali o'quvchilarga o'zboshimchalik va manmanlikning salbiy oqibatlari hamda birlik, hamjihatlik va vatanparvarlikning naqadar oliy hislatlar ekanini tushuntirish, ularda uzoq va boy davlatchilik tariximiz bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirish; Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda o'zaro hurmat, muomala odoblari hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Jadvalli test, kichik ma'ruza metodlari Shakl: guruhlarda ishlash Vosita: Savol va topshiriqlar Usul: Topshiriqlar berib, jamoalar bilan ishlash Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarga mo'g'ullar davlati va Xorazmshohlar saltanati o'rtasidagi munosabatlar hamda uning keskinlashib borishi haqida ma'lumot beradi. O'quvchilarning faolligini oshiradi, darsga nisbatan qiziqishini paydo qiladi. Bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholaydi. O'quvchilar tomonidan axborotlarni mustaqil o'rganish, ularni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi.

	O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholanadi.
Kelgusi rejalari (tahlillar va o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtiradi va darsga tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O'z ustida ishlaydi. Pedagogik mahoratini oshiradi. O'quvchi: O'rta asrlar davlatlarining paydo bo'lishi, ravnaqi hamda ular munosabatlarining keskinlashuvi sabablarini o'zlashtirgan holda tahlil etib, darslik matni yoki o'qituvchining ma'ruzasiga asoslangan holda mustaqil ishlay olish malakasini hosil qiladi. Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi, o'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Dars jihozi: Tarix darsligi, vatman qog'oz, xarita, mavzuga doir rasmlar

Tarqatma material:

Dars davomida beriladigan atama, tushuncha, sanalar hamda testlar yozilgan kartochkalar.

Yangi dars mazmunining tayanch tushuncha va atamalari:

Mo'g'ul qabilalari; Yagona davlatga birlashish; Munosabatlarning keskinlashuvi; Xorazmshohlar davlati inqirozi.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi interfaol metodlar:

Qisqa ma'ruza, hikoya tuzish, jadvalli test metodlari.

Darsning borishi:

I	Tashkiliy qism	3 daqiqa
II	Uy vazifasini takrorlash	12 daqiqa
III	Yangi dars mavzusini tushuntirish:	13 daqiqa
IV	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa
V	Dars yakunlarini chiqarish	3 daqiqa
VI	Uyga vazifa	2 daqiqa

I. Tashkiliy qism.

Sinf xonalarini darsga tayyorlash va o'quvchilarni darsga jalb qilish.

II. Uy vazifasini takrorlash.

O'quvchilar 5 guruhga bo'linadilar.

Har bir guruhga o'tgan mavzu va tariximizga oid bitta rasm asosida qisqa matn tuzish vazifasi beriladi.

5-guruhga: Mustaqil O'zbekiston.



O'quvchilar matn tuzishda, o'qituvchilar esa uni baholashda quyidagi baholash mezoniga amal qilishi kerak:

1	O'quvchilar rasmdagi voqea yoki jarayonning qaysi mavzuga tegishli ekanligini bilsa	1 ball
2	O'quvchilar voqeaning izohini gapirib bera olsa	1 ball
3	O'quvchilar rasmdagi voqeaning kelib chiqishi, rivoji va natijalarini aytib bera olsa	1 ball
4	O'quvchilar rasmda keltirilgan tasvirning qaysi yil yoki asrga tegishli ekanligini aytib bersa	1 ball
5	O'quvchilar rasmda keltirilgan tasvir haqida o'quvchi o'zining shaxsiy fikrini bildirsa yoki qo'shimcha adabiyotlar asosida ma'lumot bersa	1 ball
Jami:		5 ball

III. Yangi dars mavzusini tushuntirish:

Yangi mavzu bayoni quyidagi reja asosida kichik ma'ruza shaklida tushuntiradi.

Yangi mavzu rejasi:

1. Mo'g'ullar davlati
2. Qo'shni davlatlarning bosib olinishi
3. O'zaro elchilik aloqalari
4. Munosabatlarning keskinlashuvi
5. Xorazmshohlar davlatining inqirozga yuz tutishi

Yangi mavzu bayoni

XI asrda mo'g'ul qabilalari hayotida hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Ular asosan ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va o'zaro mahsulot ayirbosh qilish bilan shug'ullanar edi. Mo'g'ul urug' boshliqlari orasidagi ichki kurashlarda **Temuchin (1155-1227)** g'olib chiqadi. **1206-yilda Onon** daryosi bo'yida



chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin **ulug' xon (qoon)** deb e'lon qilindi.

1206-yilda dastlab naymanlar bo'ysundirildi. **1207-1208**-yillarda **Enasoy** havzasi, so'ngra **Yettisuv** viloyatining shimoliy qismi zabt etildi va uyg'urlar taslim bo'ldi. **1211-1215**-yillarda Chingizxon bir necha bor **Xitoyga** hujum qilib, Shimoliy Xitoyning markazi **Szindi** shahrini ishg'ol qilib, **Szin** sulolasini taxtdan qulatdi. **Shimoliy Xitoy** yerlari Mo'g'uliston davlatiga qo'shib olindi. Chingizxon **1218-1219**-yillarda **Sharqiy Turkiston** va **Yettisuv** viloyatlarini deyarli talafotsiz qo'lga kiritib, bu yerdagi

Kuchluk davlatini tugatdi. Endilikda Mo'g'ullar davlatining g'arbiy hududlari **Sulton Muhammad Xorazmshoh** saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketgan edi.



O'zaro elchilik aloqalari Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida bir-birining kuch-qudratini bilib olishga va bu haqda ma'lumotlar to'plashga harakat qilinadi. Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari o'rnatiladi.

1216-yilda Chingizxon huzuriga Xorazmshoh **Bahouddin Roziy** boshchiligida o'z elchilarini yuboradi. Elchilarni Chingizxon iltifot bilan qabul qiladi. Chingizxon elchilarini Sulton Muhammad **1218**-yilning bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi.

Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun **1218**-yilning o'zidayoq Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini otlantiradi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, xitoy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa xil qimmatbaho mollar ortilgan **500 tuyadan** hamda **450 musulmon** savdogarlaridan tashkil topgan edi. Karvon yo'lda chegara shahar **O'trorda** ushlab qolinadi. Shaharning noibi **G'oirxon (Inolchiq)** tomonidan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi.

Chingizxon yana **Ibn Kafroj Bug'roni** ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Xorazmshoh Chingizxonning bu elchisini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib,

sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki o'rtadagi munosabatlarni yomonlashtirgan.

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Xorazmshoh hokimiyati kuchsiz edi. Mamlakat holatining eng achinarli tomonlaridan yana biri shunda ediki, og'ir soliqlardan ezilgan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e'tiqodi susayib ketgan edi. Bunday o'ta xavfli vaziyatni bartaraf etish maqsadida Sulton Muhammad o'z hukmronligining so'ngida "Davlat kengashi"ni ta'sis etgan. Kengashga 6 nafar bilimdon vakillar jalb etiladi. Ammo bu tadbir ijobiy natija bermaydi. Ana shunday vaziyatda u jangari mo'g'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi.



Xorazmliklarning mo'g'ullarga qarshi jangi.

IV.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruhlarga 5 ta jadvalli test beriladi. Ular testlarni bajarishadi va shu orqali mavzu mustahkamlanadi.

1-guruh. Quyidagi shaxslarni ular bilan bo'lgan voqealar sanasi bilan to'g'ri muvofiqlashtiring.

1	Timuchin	A	1216 yilda mo'g'ul xoni huzuriga bordi.
2	Chingizxon	B	1218 yilda O'trorda karvonni talashni buyurdi.
3	Bahouddin Roziy	C	1155-1227 yillarda yashagan
4	G'oirxon	D	1206 yilda xon deb e'lon qilindi

2-guruh. Chingizxon qaysi yillarda qayerlarni egalladi? To'g'ri belgilang.

1	1207-1208 yillar	A	naymanlar hududi
2	1218-1219 yillar	B	Shimoliy Xitoy
3	1211-1215 yillar	C	Sharqiy Turkiston va Yettisuv
4	1206 yil	D	Enasoy havzasi va Yettisuvning shimoli qismi

3-guruh. Quyidagi raqamlarni qaysi voqealar so'z va iboralari bilan bog'liqligini to'g'ri muvofiqlashtiring.

1	10000	A	"Davlat kengashi" a'zolari
2	450	B	qimmatbaho mollar ortilgan tuyalar
3	500	C	musulmon savdogarlari
4	6	D	kezik (keshik)

4-guruh. Atamalarini ularning mazmuni yoki muvofiqligi bilan to'g'ri belgilang.

1	Chingiz	A	Tyanshan
2	Szindi	B	Sharqiy Turkiston va Yettisuvda mavjud bo'lgan davlat
3	Tangritog'	C	kuchli, qudratli, toza
4	Kuchluk	D	Pekin shahri

5-guruh. Quyidagilarni to'g'ri muvofiqlashtiring.

1	Iskandari Soniy bu...	A	Mahmud Yalavosh
2	Xorazmshoh tomonidan o'ldirilgan mo'g'ul elchisi bu...	B	Turkonxotun
3	"turklar onasi" bu...	C	Ibn Kafroj Bug'ro
4	xorazmlik savdogar bu...	D	Muhammad Xorazmshoh

Topshiriq javoblari:

1-guruh.

S	1	2	3	4
J	C	D	A	B

2-guruh.

S	1	2	3	4
J	D	C	B	A

3-guruh.

S	1	2	3	4
J	D	C	B	A

4-guruh.

S	1	2	3	4
J	C	D	A	B

5-guruh.

S	1	2	3	4
J	D	C	B	A

V. Dars yakunlarini chiqarish:

O'quvchilar savollariga javob berish;

Yakuniy umumiy xulosa chiqarish;

Faol qatnashgan guruh va o'quvchilarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish.

VI. Uyga vazifa:

1. Mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash, daftarga javob yozish.
2. Mavzuni o'qish va kamida 5 ta test tuzish.
3. Navbatdagi – "Chingizxon bosqini" mavzusini o'rganib kelish.

Mamajonova Zulfiya – Kosonsoy tumani 18-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi
Sinf: 5

Fan: Tarixdan hikoyalar

Mavzu: Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi

Darsning maqsadi:

- a) **Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga qadimgi dunyo odamlarini hayratga sologan inshootlardan yettitasi, yeti mo'jizasi haqida ma'lumot berish.
- b) **Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga tarixiy obidalar, ularni tarbiyaviy ahamiyatini anglatish, ularga nisbatan chuqur hurmatda bo'lishni o'rgatish
- c) **Rivojlantiruvchi maqsad:** Qadimgi dunyoda insonlarning mehnati, yaratuvchanligi, mo'jizalar yaratganligini tushuntirib berish.

Dars turi: Yangi bilimlarni o'rganish

Dars usuli: Noan'anaviy, savol-javob

Dars jihozi: Darslik, bolalar ensiklopediyasi, darsga oid rasmlar, testlar

Darsninng borishi

1. Tashkiliy qism
2. Takrorlash
3. Yangi mavzu bayoni
4. Mavzuni mustahkamlash
5. Baholash
6. Uyga vazifa

1. Tashkiliy qism.

Salomlashib, davomat aniqlanadi

2. Takrorlash.

O'quvchilar bilan o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.


1. Davomat nima?
2. Jamiyatni nima uchun qonunsiz boshqarib bo'lmaydi?
3. Fir'avnlr kim?
4. Xitoyda nimalar yaratilgan?
5. Hindistonda nimalar kashf etilgan?

3. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu: Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi

Reja:

1. Yetti mo'jiza haqida
2. Misr ehromlari
3. Semiramida osma bog'lari
4. Olimp xudosi Zevs haykali
5. Mabuda artemida ibodatxonasi
6. Quyosh xudosi Gelios haykali
7. Aleksandr mayog'i
8. Galikarnas maqbarasi



Qadimgi Misrliklar O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan va o'z salobati, go'zalligi bilan o'sha zamon odamlarini xayratga slogan inshoatlardan yettitasini "Qadimgi dunyoning yeti mo'jizasi deb ataganlar". Ular haqida yozma malumotlar ham qoldirganlar.

Misr ehromlari.

Qadimgi Misrda vafot etgan firavn jasadi uchun avval mahsus "uy"- tobut yasalgan bunday uy sarkofag deb atalgan. Firavnning mummyolangan jasadi unga solingan. Keyin bu sarkofag doimiy turar joyga - toshdan qo'yilgan maqbaraga qo'yilgan. Ana shunday maqbaralar ehromlar deb atalgan. Misr firavnlari hayotligi paytlaridayoq o'zlariga katta toshlardan piramida shaklida ehromlar qurdirib qo'yg'nanlar. Dastlabki ehromni memor Imonhateb loyihalashtirgan.

Kitoblarda yozilishicha ehromlarning eng ulkanini firavn Xeopis qurdirgan uning balandligi 146.5 m., poydevorining to'rt tomoni esa 233 m bo'lgan. Xeops ehromini qurish uchun 2 million 300 mingta tosh sarflangan eng kichik toshning og'irligi 2.5



tonna bo'lgan. Ehrom toshlariga shunday ishlov berilganki birining ustiga ikkinchisi qo'yilganda ular juda ham zij yopishib turgan.

Semiramida osma bog'lari.



Mil.avvalgi VII asrda yashab o'tgan yangi Bobil davlati hukumdori - malika Semiramida Bobil shahrida tarixga "Semiramida osma bog'lari" nomi bilan kirgan bog' bunyod ettirgan. Bog' to'rt qavatli saroy shaklida bunyod etilgan. "Osma bog'" supaga o'xshash qilib qurilgan. Bu supalarni ustunlar ko'tarib turgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib unga rang - barang gullar har-xil ko'chatlar o'tqazilgan. Har bir qavatdagi bog'ga

zinopoyalar orqali chiqilgan. Tepadan pastga oqayotgan oqayotgan suv salqini haqiqiy mo'jiza edi.


Olimp xudosi Zevs haykali.

Qadimgi greklarning dini ko'p xudolik bo'lgan. Afsonalarga ko'ra xudolar olimp tog'ida yashaganlar. Zevs xudolarning oliysi, xudolar va odamlarning "otasi" hisoblangan. Uning nomi "Yorug' osmon" degan manoni anglatgan. Qudratli Zevs sharafiga greklar yilda bir marotaba mashhur sport musobaqalari - olimpiyada o'yinlarini o'tkazganlar.



Greklar Zevsga atab ibodatxona va haykal bunyod etganlar. Xudolar podshosi Zevs tahtga o'tirgan holda tasvirlangan. O'ng qo'lida-mabuda Nikaning haykali, chap qo'lida hokimiyat ramzi hisoblangan muqaddas burgut o'rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan tarashlangan, ko'zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan. Zevs haykalining balandligi 12 m bo'lgan.

Haykal shu darajada mahorat bilan ishlanganki uni tomosha qilgan kishining turmush tashvishlari g'am-g'ussalari tarqalib ketgan. Taxtga o'tirgan Zevs haykalini mashhur haykaltarosh Fidiy yaratgan.



Mabuda Artemida ibodatxonasi.

Mabuda Artemida sharafiga Efes shahrida ko'rganlarni lol qoldiradigan ibodatxona qurilgan afsonalarga ko'ra artemida Zevsning qizi bo'lgan. U hosildorlik, ov va oy mabudasi edi. Ayni paytda hayvonlar homiysi shunimgdek ayollar madadkori ham

hisoblangan. Artemida ibodatxonasining tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 m ustunlar suyab turgan. Ibodatxona ichiga grek rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan.

Quyosh xudosi Gelios haykali.

Milloddan avvalgi 304-yilda Rodos aholisi shaharning bir yillik qamaldan halos bo'lganligi sharafiga shahar homiysi quyosh xudosi Geliosning haykalini yaratishga qaror qilgan. Haykalning bo'yi 35 m bo'lgan. Uni



haykaltarosh Xeres 12-yil davomida bunyod etgan. Haykalda quyosh xudosi Geliosning boshi quyoshga tegib turgandek tasvirlangan.

Aleksandr mayog'i.



Miloddan avvalgi 283-yilda Misr sohillaridan uzoq bo'lmagan Foros orolida o'sha zamonning ajoyib mo'jizasi Aleksandr mayog'i bunyod etilgan.

Mayoq kemalarning Aleksandriya shahri bandargohiga kirish havfsizligini taminlashga xizmat qilgan. Mayoqning balandligi 120 m bo'lgan. Uning eng yuqori qismi gumbaz bilan qoplangan. Gumbazning ustiga "dengiz xudosi Poseydonning yetti metrli haykali" o'rnatilgan. Gumbazni sayqallangan granit ustunlar ushlab turgan.

Uning ustki qismida mayoq olovi yonib turgan va kechalari dengizchilarga uzoqdan ko'rinib turgan. Mayoq atrofni kuzatish nuqtasi vazifasini ham bajargan.

Mayoq 1500 yildan ortiq vaqt xizmat qilgan.

Galikarnas maqbarasi.

Qadimgi Gretsiyada Kariy podisholigi bo'lgan. Uning poytaxti Galikarnas shahri edi. U nihoyatda boy va go'zal shahar bo'lgan. Galikarnas maqbarasini mil.av. 353-yilda vafot etgan podisho Mavsol qurdirgan. Bu bino ham maqbara ham ibodatxona vazifasini bajargan.

Maqbaraning kengligi 66 m uzunligi 77 m, balandligi esa 46 m bo'lgan.



Hozigi kunda faqat **Misr ehromlarigina** saqlanib qolgan.

4. Mavzuni mustahkamlash

O'qituvchi sinf o'quvchilarini 7 guruhga bo'lib, har bir guruhga bittadan mo'jiza haqida ma'lumot berishni vazifa qilib beradi.

Tayyor bo'lgan guruh ma'lumotlarini aytib berish kerak.

Guruhlar ichida eng to'liq ma'lumot bergan guruh g'olib bo'ladi. Yakka holda eng ko'p ma'lumot bera olgan o'quvchilar baholanadi.

Shundan so'ng yangi mavzuga oid kichik test olinadi.

Quyidagi testdan foydalanish mumkin?

1. Qadimgi Misrda eng katta ehromni kim qurdirgan?
A) Memfis B) Xufu **C) Xeops** D) Menkaura
2. Semiramida osma bog'lar qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) Rodos B) Aleksandr C) Misr **D) Bobil**
3. Afsonalarga ko'ra Artemida qaysi xudoning qizi bo'lgan?
A) Poseydon **B) Zevs** C) Afina D) Gipnoz
4. Zevs haykalining balandligi qancha?
A) 12 m B) 13 m C) 14 m D) 15 m
5. Qadimgi dunyoning yeti mo'jizasidan bizgacha qaysi biri yetib kelgan?
A) Galikarnas maqbarasi **B) Misr ehromlari**
C) Aleksandr mayog'i D) Gelios haykali

5. Baholash. O'qituvchi o'quvchilarni darsda qatnashgan ishtirokiga qarab baholaydi.

6. Uyga vazifa. Mavzuni o'qish va beshtadan test tuzish

N.Xoshimova - Norin tuman 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Sinf: 5

Fan: Tarixdan hikoyalar

Mavzu: O'zbekistondagi eng qadimiy tarixiy shaharlar

Darsning maqsadi:

1. **Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarga O'zbekistondagi eng qadimiy tarixiy shaharlarimiz va ularning nomlari, tashkil topishi haqidagi ma'lumotlarni berish va ular to'g'risida bilim va ko'nikmalar berish.
2. **Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarga moddiy va ma'naviy madaniyatimizni o'rganishni, ularni tarix fanidagi ahamiyatini aniqlash, tarixiy shaharlarimizni qanchalik ulug' va muqaddas ekanligini, ularni asrab-avaylashimiz kerakligi tushuntiriladi.
3. **Rivojlantiruvchi maqsad:** Darsda o'quvchilarga qadimiy shaharlarimizning muqaddas va uzoq o'tmishga ega ekanligini, bu shaharlarni fahrimiz, boyligimiz ekanligini o'rgatish va mustaqil fikrlashni shakllantirish.

Dars uslubi: Aralash, aqliy hujum, boshqotmalarda ishlash

Dars jihozi: Yozuv taxtasi, tarqatmalar, rasmlar, xarita, gazeta va jurnallar, turli tarixiy adabiyotlar, chizmalar.

Darsning tuzilishi:

- | | |
|--------------------------------|-------------|
| 1. Tashkiliy qism | - 2 daqiqa |
| 2. O'tilgan mavzuni takrorlash | - 12 daqiqa |
| 3. Yangi mavzuni bayon etish | - 14 daqiqa |
| 4. Mavzuni mustahkamlash | - 10 daqiqa |
| 5. Baholash | - 4 daqiqa |
| 6. Uyga vazifa | - 3 daqiqa |

1. Tashkiliy qism: O'qituvchi va o'quvchilar o'zaro salomlashgach, davomat aniqlanadi. Mavzuga oid rasmlar doskaga ilinadi.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash: O'tilgan mavzu tekshiruvdan o'tkazilib, o'quvchilar ikki bosqichda o'tgan mavzu bo'yicha sinov qilinadi.

1-bosqich. "Aqliy hujum"

1-savol: - Amir Temur mamlakatining poytaxti qaysi shahar?

Javob: - Samarqand

2-savol: - Amir Temur bunyodkorlik ishlarini nimadan boshlagan?

Javob: - Samarqandni mudofaa devorlarini tiklashdan

3-savol: - Amir Temurning qarorgohi...

Javob: - Ko'ksaroy

4-savol: - Temur bobomizning turmush o'rtog'i Bibihonim nomi bilan bog'liq qanday bino bunyod etilgan?

Javob: - Jome' masjid

5-savol: - Bobomiz Amir Temur ma'naviy merosining o'zagi bu ...

Javob: - Samarqand

6-savol: - Bobomiz Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Sulton uchun nechanchi yilda maqbara qurdirgan?

Javob: - 1403-yilda

7-savol: - Amir Temur bobomiz qachon vafot etgan?

Javob: - 1405-yilda

8-savol: - Go'ri Amir bu - ...

Javob: - Amir Temur va temuriylar dafn etilgan.

9-savol: - Amir Temur Turkiston shahrida kimga atab maqbara qurdirgan?

Javob: - Ahmad Yassaviyga

10-savol: - O'zbek xalqining buyuk mutaffakkir shoiri, davlat arbobi, ilm-fan vama'daniyat homiysi, o'zbek adabiy tilining asoschisi kim?

Javob: - Alisher Navoiy

2-bosqich. "Bingo mashqi"

Bu bosqichda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga "Bingo mashqi"ni bajarish vazifa qilib topshiriladi. "Bingo mashqi" jadvali va savollari tarqatma qog'ozlarda tarqatiladi.

"Bingo mashqi" jadvali

Saroymulkhonim	Samarqand	Temurnoma
Klavixo	Zangiota	Ma'nolar hazinasi
Miniatura	1455-1535-yy.	545 yillik

Mashq savollari

1. Amir Temurning turmush o'rtog'i. (**Saroymulkhonim**)
2. Amir Temur qaysi shaharni atrofini bog'-rog'lar bilan o'rab olgan? (**Samarqand**)
3. 1404-yilda Ispaniyadan kelgan elchi. (**Klavixo**)
4. Amir Temur tomonidan Toshkent viloyatida barpo etilgan me'moriy majmua. (**Zangiota**)
5. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'rlari to'plami. (**Ma'nolar xazinasi**)
6. Kamoliddin Behzod yashagan yillar. (**1455-1535 yy.**)
7. Kamoliddin Behzod Xotifiyning qaysi asariga miniatura ishlagan? (**Temurnoma**)
8. 2000-yilda yurtimizda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining necha yillik yubileyi nishonlandi? (**545-yillik**)
9. O'ta nafis qilib ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asari bu ... (**Miniatura**)
Bu mashqni qaysi guruh birinchi bo'lib bajarsa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

3. Yangi mavzuni bayon etish.


Mavzu: O'zbekistondagi eng qadimiy tarixiy shaharlar

Reja:

1. Samarqand shahri
2. Buxoro shahri
3. Xiva shahri
4. Qarshi shahri
5. Termiz shahri
6. Marg'ilon shahri


Samarqand O'zbekistonning eng qadimgi shahri.

2007-yilda Samarqandning 2750 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Samarqand shahri Vatanimizning yuksak mukofoti – "Amir Temur" ordeni bilan taqdirlandi. So'g'd yozma manbalarida shahar Samarqand nomi bilan qayd etilgan. Qadimgi Gretsiya tarixchilari esa Samarqandni Maroqanda nomi bilan yozib qoldirilgan. Maroqanda dastlab atrofi mudofa devor bilan o'ralgan qal'a – qo'rg'on bo'lgan. Samarqand miloddan avvalgi IV asrdan Sug'd davlatining



poytaxti bo'lgan. Keyinchalik chet ellik bosqinchilarning hujumi natijasida shahar bir necha bor vayron etilgan. Samarqandning gullab – yashnashi, dunyoning eng mashhur va go'zal shaharlardan biriga aylanishi buyuk bobomiz Amir Temur nomi bilan bog'liq.

Samarqand Amir Temur davlatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'ldi va "abadiy shahar"lar qatoridan joy olgan. Samarqanda 70 dan ortiq yirik tarixiy shaharlar va me'moriy yodgorliklari mavjud. Bu yodgorliklar 2001-yilda xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan jahon merosi ro'yhatiga kiritildi. Davlatimiz mustaqilligi yillarida O'zbekistonning eng qadimgishahri bo'lgan Samarqandning qiyofasi yanada go'zallashdi.



Buxoro arki.

Buxoro shahri. Buxoro ham O'zbekistonning eng qadimiy va hamisha navqiron mashhur shaharlari qatorida turadi. 1997 yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

Tarixchi olimlarning taxminicha shaharning nomi "Tangri jamoli " degan ma'noni anglatadi. Buxoroni ajdodlarimiz "ezgulik shahri"deb ham ataladi. Buxoro dastlab IX-X asrlarda, keyin XVI asrdan boshlab mamlakat poytaxti maqomiga ega bo'lgan. Bugungi kunda Buxoro shahrida yuzdan ortiq yirik tarixiy me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Buxoro arki hukumdorlari qarorgohi Ismoil Samoniy maqbarasi, Minorai Kalon , Mir Arab va Ulug'bek madrasalari kabilar ularning eng mashhurlaridir.

Qadimgi Buxoro ayni paytda navqiron shahardir. Mustaqillik yillarida shaharning ko'rinishi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Shahar yanada go'zallashdi. Ayniqsa, 107ga dan iborat "Buxoro madaniy markazi" O'zbekistonning har bir fuqarosida Vatan bilan faxrlanish hissini yanada ortishiga xizmat qiladi 2010 –yilda bu markazda "Ko'hna va boqiy Buxoro" monementi bunyod etildi.

Xiva shahri. Xiva xozirgi Xorazm viloyatidagi shahar u yosh jihatdan Buxoro bilan tengdosh. 1997 yilda Xivaning ham 2500 yilligi keng nishonlandi. Shahar sharqning durdonasi hisoblanadi. Unga nisbatan "Ming gumbaz shahri" iborasi ham ishlatiladi.

Qolgan shaharlarga ham shu tariqa ta'rif berib boriladi.

Mavzuni quyidagi chizma orqali ham tushuntirishi mumkin



4. Mavzuni mustahkamlash

O'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlashni ikki bosqichda amalga oshiradi.

Birinchi bosqich

Bu bosqichda guruhlariga tarqatma qog'ozda chalkash harflar yozilgan boshqotirmalar beriladi.

Topshiriq sharti, harflarni to'g'ri joylashtirilsa tarixiy shaharlar nomi kelib chiqadi.

1.

S	D	Q	A	R	M	A	N	A

2.

R	A	G'	L	I	M	O	N

3.

Z	I	T	E	R	M

4.

O	R	O	X	U	B

5.

Sh	A	R	Q	I

6.

I	A	X	V

Topshiriq javoblari

1. Samarqand. 2. Marg'ilon. 3. Termiz. 4. Buxoro. 5. Qarshi. 6. Xiva

Ikkinchi bosqich

Bu bosqichda guruhlariga qiyinroq darajadagi savollar beriladi va ularni o'ylashga majbur qilinadi.

Quyidagi savollardan foydalanish mumkin

1. Samarqand va Buxoro shaharlarini o'ziga xos o'xshash tomonlarini aniqlang
2. Qarshi, Termiz va Marg'ilon shaharlarini tarixi qanday shakllangan?
3. Nima sababdan YUNESKO tashkiloti jahon merosiga O'zbekistonning qadimiy shaharlari kiritilgan?

5. Baholash. Darsda faol qatnashgan guruh va o'quvchilar a'lo darajadagi baholar bilan rag'batlantiriladi.

6. Uyga vazifa. Quyidagi jadvalni to'ldirish

Shaharlar	Barpo etilgan vaqti	Shahar nomining ma'nosi	Shaharga nisbatan ishlatilgan o'xshashliklar	Poytaxtlik maqomiga egalik davri	Shahar yubileylari nishonlanilgan yillar
Samarqand					
Marg'ilon					
Termiz					
Buxoro					
Qarshi					
Xiva					

Hayitova Shahnoza – Kosonsoy tuman 38-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Sinf: 6

Fan: Tarix

Mavzu: Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati

Darsning maqsadi

- A) **Ta'limiy:** O'quvchilarga O'zbekiston hududidagi dastlabki davlatlar hususida bilim, ko'nikma va malaka berish;
- B) **Tarbiyaviy:** O'quvchilarni qadimiy meros va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- C) **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning dars jarayonida intellektual salohiyatini oshirish, dastlabki davlatlarning shakllanish jarayoni va bugungi ijtimoiy muhitni qiyoslab, tarixiylik va zamonaviylikni anglatib, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsning usuli: Baxs-munozara, "Aqliy hujum", "Guruhlarda ishlash".

Darsning jihozi: darslik, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, testlar, boshqotirmalar, kompyuter.

Darsning shiori: Davlatlar shohidir Xorazm, Qang', Dovon,
Bular tarixini o'rganay har on

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

- A) O'quvchilar bilan salomlashish;
- B) O'quvchilar davomatini olish;
- C) O'quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlab, sinf tozaligini nazorati qilish(tarbiya daqiqasi);
- D) O'quvchilar siyosiy bilimini sinash.

Darsning tashkiliy qismida sinf o'quvchilarini mavzu nomidan kelib chiqib 3 guruhga bo'linadi va ularni quyidagicha nomlanadi:

- 1-guruh – Xorazm;
- 2-guruh – Qang';
- 3-guruh – Dovon.

Har bir guruhga bittadan sardor saylab olinadi, ular guruhlar baholarini qayd etib boradilar. Tashkiliy qism tarkibida o'quvchilardan kunning muhim ijtimoiy-siyosiy yangiliklarini ham guruhlarda so'rab baholab olinadi.

2. O'tilgan mavzuni so'rash.

Takroriy qism: O'tilgan mavzu yuzasidan har bir guruhdan bittadan vakilni chiqarib har bir guruh a'zosiga 2 tadan quyidagi savollarni beraman:

1-guruh vakiliga:

- 1) Makedoniyalik Aleksandr davlati qanday qismlarga bo'linib ketdi?
- 2) Salavka va Antioxlar haqida nimalarni bilasiz?

2-guruh vakiliga:

- 1) Ellinlashtirish nima?
- 2) Yunon-Baqtriya podsholigi qachon tashkil topdi?

3-guruh vakiliga:

- 1) Yunon-Baqtriya podsholigi qachon Salavkiylar tarkibidan Mustaqil bo'lib ajralib chiqdi?
- 2) Spitamen kim?

Guruhdagi qolgan o'quvchilarga quyidagi **"Ellada" krossvordini** yechish uchun beriladi.

Krossvord savollari o'quvchilarga o'qib eshittiriladi.

						7
		3				I
1	2	O		5		L
G	T	D	4	O	6	O
I	E	I	E	L	A	T
M	A	S	L	I	G	
N	T	S	L	M	O	
A	R	E	A	P	R	
Z		Y	D		A	
I			A			
Y						
A						

Guruh a'zolarini sardorlar yordamida baholab, faol qatnashganlarga rag'bat baholarini tarqatiladi.

4. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Darsning bu bosqichida o'tilgan mavzu yuzadidan o'quvchilar to'xtalib o'tmagan fikrlarga e'tibor berib, bo'shliqlarni to'ldirib, mavzuga xulosa yasayman.

3. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu bayonidan avval doskaga sana, mavzu va rejalar yoziladi.

Mavzu: Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati

Reja:

1. Qadimgi Xorazm davlati
2. Qang' va qang'yuyilar
3. Dovon davlati

M.avv. IV asrda Xorazm Ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylandi. Aholi xo'jaligi asosan dehqonchilik. Qadimgi Xorazm davlati tarixi xususida Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a shahar xarobalaridan topilgan ashyolar ma'lumot beradi. Eng qadimgi yozuv O'rta Osiyo bo'yicha Xorazm hududidan topilgan bo'lib, bu yozuvlar Oybo'yirqal'a (M.avv. V-IV asrlar), Qo'yqirilganqal'adan (M.avv. IV-III asrlar) yodgorliklaridagi yozuvlardir.

Qadimgi Qang' davlatiga mill.avv. III asrda saklar asos solganlar. Qang' (Qang'yuy) - hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo bo'yi hududlarini egallagan qadimgi davlat birlashmasidir. Davlat poytaxti Qang'dez bo'lib, Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan.

M.avv. II asr oxirida Qang' qabilalarning eng qudratli davlatga aylanib, hukmdorlar o'z nomidan tanga zarb qiladi.

Qadimgi Dovon davlati Xitoy manbalarida Dovon nomi bilan, boshqa manbalarda esa Parkana nomi bilan tahminan mill. avv. III asrdan – milodiy III asrgacha mavjud bo'lgan. Chunki Dovon davlatining shakllanishi va inqirozga yuz tutish yillari aniqlanmagan.

Dovonga kelgan Xitoy tarixchisi Chjan Syan “Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz ming” – degan ma'lumotlarni yozib qodirgan.

Xitoyliklar Dovon otlariga juda qiziqib, ularga “Samoviy otlar” deb nom berganlar. Poytaxti Ershi shahri bo'lgan. Olimlar fikriga ko'ra Dovon davlati milodiy II asrda barham topgan.

VIII. Yangi mavzuni mustahkamlash

Mavzuni guruhlarda “Aqliy hujum” va “Ha yoki yo'q” o'yini orqali mustahkamlanadi.

“Ha yoki yo'q” o'yini uchun berilgan savollarga o'quvchilar bir minut ichida javob to'g'ri bo'lsa “ha” katakchaga 2 ball, yo'q katakchaga agar javob noto'g'ri bo'lsa belgilab 2 ball qo'yadilar.

Savol	1	2	3	4	5
Ha					
Yo'q					

Qaysi guruh berilgan savollarga tezkorlik bilan bir minut ichida javob belgilasalar o'sha guruh a'zolariga rag'bat kartoshkasi beriladi.

“Ha yoki yo'q” o'yini savollari(o'qib beriladi):

1. Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm mustaqil edimi?
2. Oybuyurqal'a, Tuproqqal'alar Qadimgi Dovon davlati tarixiga tegishli yodgorliklarmi?
3. Qadimgi Qang' davlati hozirgi Toshkent viloyati, Chimkent viloyati hududlariga to'g'ri keladimi?
4. Sho'rabashat, Uchqo'rg'on shaharlari Qadimgi Dovon davlati hududiga kiradimi?
5. Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi mill.avv. VII asrga to'g'ri keladimi?

“Ha yoki yo'q” o'yini javoblari

1. Ha 2. Yo'q 3. Ha 4. Ha 5. Ha

5. Baholash. O'quvchilarni darsdagi ishtiroki, o'zini tutishi, odob-axloqiga qarab baholanadi.

6. Uyga vazifa.

Mavzu tarkibidagi quyidagi atamalar izohini yozib kelish:

1. Qang'yuy
2. Qang'dez
3. "Samoviy otlar"
4. Ershi

Akbarova Halimaxon – Namangan shahar 31-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Sinf: 7

Fan: O'zbekiston tarixi

Mavzu: Arablar hukumronligiga qarshi xalq harakatlari

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga arab hukumronligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alonning sabablari, Gurak va Divashtich boshchiligidagi qo'zg'alonlarning boshlanishi, yengilishini, 736-737 yillardagi Tohariston va Sog'ddagi qo'zg'alonlar va uni bostirilishi haqida ma'lumot berish.

b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni fanga muhabbat, istiqlolga sadoqat ruhida tarbiyalash.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish nutq o'stirish.

Dars usuli: Noan'anaviy, savol-javob

Dars jihozi: O'zbekiston tarixi darsligi, mavzuga oid xarita, yozuvsiz xarita, tarqatma material, rasm, doska, bo'r, daftar va testlar.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism
2. Takrorlash
3. Yangi mavzu bayoni
4. Mavzuni mustahkamlash
5. Baholash
6. Uygavazifa

1. Tashkiliy qism. Sinfda o'quvchilarni darsga jalb qilish, salomlashish, davomatni aniqlash. Dunyoda va O'zbekistonda yuz bergan muhim yangiliklardan xabarlar.

2. O'rganilgan mavzuni takrorlash.

Uyga berilgan topshiriqlar, savollar bo'yicha o'tkaziladi. Guruhlar tuzib kelgan krossvordlardan foydalangan holda o'qituvchi uni yechish uchun guruhlariga tarqatadi. Eng yaxshi tuzilgan krossvordni muallifi yoki guruh va krossvordni yechgan guruhlar rag'batlantiriladi. Undan so'ng o'qituvchi quyidagi berilgan savollarga o'quvchilarning og'zaki javobini eshitadi.

1. Movarounnahrning arablar tomonidan fath etilishi qanday oqibatlariga olib keldi?

Javob: Movarounnahr o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, iqtisodiy tanazzulga, aholini ikki tomonlama zulm ostiga olib kelishga olib keldi.

2. Istilochilar mahalliy aholini islomga kiritishda qanday yo'llardan foydalanganlar?

Javob: Yerli aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan otashparastlik, nestorian, moniy, budda kabi dinlarni soxta deb e'lon qiladilar, ibodatxonalarni vayron etib, ularning o'rniga masjidlar barpo etadilar, hamma joylarda diniy kitoblarni yo'q qilib, kohinlar va ibodatxona mulozimlarni quvg'in qiladilar, islom dini qabul qilgan kishilarga ma'lum imtiyozlar yaratib beradilar.

3. Istilo mahalliy ma'naviyatga qanday ta'sir ko'rsatdi?

Javob: Asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy hayotga tiklab bo'lmas zarar yetkazildi.

3. Yangi mavzu bayoni.

Darsning mazmuni.

Reja:

1. Qo'zg'olonning sabablari
2. Qo'zg'olonlarning boshlanishi
3. Qo'zg'olonchilarga yon berilishi

Darsning mazmunini ro'yobga chiqarish ustida ishlash.

O'qituvchi "Arab hukumronligiga qarshi xalq harakatlari" mavzusini VII sinf "Jahon tarihinin Arab xalifaligi va uning istilolari" mavzusi bilan integratsiyalangan holda tushuntiradi.

Arab bosqinchilarining talonchilik siyosati yerli xalqni barcha haq-huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoqosti qilinishi, zulm hamda arab tili, yozuvi va xalifalik qonun-qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Xalifa Umar ibn Abdulaziz (717-719) murakkab vaziyatni hisobga olib, bo'ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon berdi. Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan yerli xalqlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi. Ammo Xuroson noiblari uni bajarishdan bosh tortadilar. Ular hatto aholi hali yuzaki musulmon, jiz'yadan ozod qilish uchun xatnaga e'tibor berish ham lozim, degan beandishalikka boradilar. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko'pchiligi o'zini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq to'lamay qo'yadi. So'ngra xalifalik ma'muriyati bir yo'la hammadan jiz'ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan arab ma'muriyati o'rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda bosqinchilarga qarshi xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. **So'g'd ixshidi Tarxun tangasi VIII asr boshiga oid bo'lib Samarqanddan topilgan.** Bunday qo'zg'olonlardan biri 720-yilda Sug'dda boshlandi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchilik qiladilar. Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari keladi. Sug'ddagi barcha hokimliklar aholisi ko'tariladi. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga qattiq zarba beradilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolganl arab istilochilari katta o'lpon va G'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilarl ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar. 721-yilda Said Xarashiy Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozonganl edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarishl vazifasi topshiriladi. Said Xarashiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida G'urak boshliq Sug'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomoniga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qisml

Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. Said Xarashiy Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralari kuchaytiradi. Biroq, qo'zg'olonni to'll bostirishga erisha olmaydi. **Oo'zg'olonchilarga von berilishi.** Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbil edi. Shunga qaramasdan, u o'z samarasiz berdi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'i *chokarlari* va *kadivarlari* bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o'tadigan Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor (738-748) mamlakatda o'z mavqeyini, mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoi o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilaj jiz'yadan ozod etildi. Barcha musulmonlarning huquq jihatdan tenglashtiriladi, yer egasini e'tiqodidan qat'i nazar ularning xiroj to'lasli shart qilib qo'yiladi. Shu asosda Movarounnahr va Xurosonning barcha viloyatlari uchid xiroj miqdori belgilab beriladi. Shu bilan birga Nasr mahalliy mulkdorlari bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tuti turishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomoniga o'tgan yili dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali ara lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatilishini himoya qiladi. Ayni vaqtda o'zi ham namuna ko'rsatib, Buxorxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida, shubhasiz, arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi. Ammo bu ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'lkalardan biri bo'lib qolaveradi. VIII asrning 40-yillarida xalifalikda toj-u taxt uchun kurash kuchayadi. Muhammad payg'ambarning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali xalifalik uchun kurash boshladi. Umaviylar Muhammad (s.a.v.) avlodini qirib tashlashda ayblandi. Hokimiyatni abbosiylarga topshirish kerak degan da'vo ilgari surildi. Abbosiylar harakatini targ'ib qilish uchun xalifalikning deyarli barcha o'lka va viloyatlariga targ'ibotchilar yuboriladi. Bu borada ayniqsa Sharqiy viloyatlarga alohida ahamiyat beriladi. Targ'ibotchilar aholining og'ir ahvoliga faqat ummaviylar sababchi degan fikrni oshkora targ'ib qiladilar. Shu tanqa xalifalikda umaviylarni ag'darib tashlash uchun keskin harakat boshlanib ketdi. **Islohot** - tartibni o'zgartirish. **Farmon** - qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq.

4. O'rganilgan mavzuni mustahkamlash.

Savol-javob va mavzuning asosiy mazmunini takrorlash orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarni 5-6 ta guruhga bo'lib, mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va atamalar yozilgan kartochoqlarni tarqatib, o'quvchilardan uning izohini darslikdagi mavzudan foydlangan holda so'raydi.

2. Guruhlarda ishlash, yakunlarini chiqarish.

5. Dars yakunlarini chiqarish.

1. O'qituvchini o'quvchilar bajargan yozma ish va og'zaki javoblar uchun qo'yilgan baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi yuzaga kelgan savollarga javob qaytaradi

6. Uyga vazifa.

1. O'rganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.
2. Mavzudagi asosiy tushunchalar va atamalarni daftarga yozish.
3. O'quvchilar mavzuga oid matbuot yangiliklaridan yozib kelish.

Sultonova Yodgora – Chust tuman 41-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Sinf: 7

Fan: O'zbekiston tarixi

Mavzu: Amir Temur bunyodkorlik faoliyati

I. Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: O'quvchilarda Amir Temur davri me'morchiligi, bunyodkorlik faoliyati to'g'risida bilim, ko'nikma hosil qilish.

b) tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni o'tmish tarixga, madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik, bunyodkorlik g'oyalarini rivojlantirish.

D) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilar bilimida uzviy bog'lanishni rivojlantirish, tarixiy bilim darajasini oshirib borish.

II. Darsning jihozi: xarita, tarqatma materiallar, buklet.

III. Darsning borishi: tashkiliy qism, dars bosqichlari bilan tanishtirish.

IV. Dars uslubi: Aqliy hujum, musobaqa shakli.

O'qituvchi tomonidan tashkiliy qism amalga oshiriladi va dars jarayoni bilan tanishtiriladi.

Darsning oltin qoidasi

A) o'zaro hurmat

B) tinglash va so'zlash odobi

D) o'ng qo'l qoidasi

E) darsda faollik

Darsning bosqichlari

1. Guruhlarni tanishtirish

2. Aqliy hujum

3. Guruhlar bellashuvi

4. Yangi mavzuni o'rganish

5. Dars jarayonini mustahkamlash

Darsning nominatsiyasi

1. Engg faol o'quvchi

2. Eng faol guruh

3. Eng zukko o'quvchi

O'qituvchi: Bugungi darsimizga buyuk allomalarimiz tashrif buyurishgan, keling ularni kutib olamiz va tanishamiz.

O'quvchi: - Alisher Navoiy - *Mehr ko'p ko'rgizdim,
Ammo mehribone topmadim
Jon ba'se qildim fido,
Oromijone topmadim.*

O'quvchi- Ibn Sino

Men kim Ibn Sino, tog'u-toshlardan dala bog'lardan giyohlar terib, dori-darmon tayyorlagan bobongiz bo'ladurmen. Agar hayotda chang va g'ubor bo'lmaganda edi inson ming yil yashagan bo'lar edi. Ozoda hovli- kasaldan holi.

O'quvchi: Abu Rayhon Beruniy-

Yoshligimdan kitobni qo'ldan qo'ymadim, o'qidim, o'rgandim, izlandim, kuzatishlar olib bordim. Va nihoyat niyatimga yetdim, men globusni yaratdim.

O'quvchi:- Zebiniso

Men ilon og'zidan shakartalabman

*O'rgimchak inidan men par talabman
Erkak sher ko'ksidan sut talab qilsam
Oyoq yanglardan simu-zar talabman*

O'quvchi: Ambar otin-

*Jahon oldiga kelgan Ambar Otinman
G'am qayg'uga kelgan Ambar otinman
Ey do'st jaholat ahliga oshno bo'lako'rma
To kelguncha baxtu-saodat shaydo bo'lako'rma*

O'quvchi: Amir Temur

*Biz kim mulki Turon Amiri Turkistonimiz
Biz kim millatlarning eng qadimgisi
Turkning bosh bo'g'inimiz. Kuch- adolatdadir.*

O'qituvchi: Endi guruhlarimiz bilan tanishamiz.

1-guruh: Ma'naviyat.

O'quvchi: Ma'naviyat bu insonning poklanishi, ichki irodasini baquvvat, imonini butun qiladigan beqiyos kuchdir. Ma'naviyat ertalabdan to kechgacha qilgan yaxshiliklarimiz.

Ma'naviyat- qalbim quyoshi.

2-guruh: Ma'rifat.

O'quvchi: Ma'rifat- bu ilm olish, ilmli bo'lish degan ma'noni anglatadi.
Ta'limni tarbiyadan,

3-guruh: Istiqlof

O'quvchi: Istiqlof bu mustaqil, hur tinch o'lka degan ma'noni bildiradi.

O'quvchi: *Mustaqillik ne demak?*

Ne demakdir istiqlof

Buni bilmog'ing kerak

Ma'nosini dilga sol

O'qituvchi: Mana guruhlarimiz bilan tanishib oldik. Endi ularni bilim darajasini sinovdan o'tkazamiz. Navbat tezkor savollarga har bir guruhga 10 tadan savol beriladi. Har bir to'g'ri javob 0,5 ball. Diqqat- savollarni eshitib javob beramiz.

1-guruh

1. Tarix so'zining ma'nosi
2. Manbalar necha xil bo'ladi
3. Hijrot so'zining ma'nosi
4. Olimpiada o'yinining vatani
5. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari
6. Misr so'zining ma'nosi
7. Oq kiyimliklar qo'zg'oloni rahbari
8. Rim shahriga kimlar asos solgan.
9. Iyorglif so'zining ma'nosi
10. «Tugunli xat» qaysi xalqqa tegishli.

2-guruh:

1. Milod so'zining ma'nosi
2. Yozma manbalarni izohlang
3. Tosh davrga izoh bering
4. Barcha fanlarga nom bergan olim

5. Massagetlar malikasi
6. Misr yozuvini o'qigan olim
7. A.Makedonskiyga qarshi chiqqan qo'zg'olon rahbari
8. Yunoniston so'zining ma'nosi
9. Yunonlar Misrni qanday ataganlar
10. Altamir g'ori qayerda joylashgan

3-guruh.

1. Tarixga yordamchi fanlar
2. Milodiy manbalarni izohlang
3. Saklar qahramoni
4. Lasko g'ori qayerda joylashgan
5. Muqanna so'zining ma'nosi
6. Tarix faniga asos solgan olim
7. Bobil so'zining ma'nosi
8. Mesopotamiya so'zining ma'nosi
9. Neandartol odami qayerda topilgan
10. Mo'g'ullarga qarshi chiqqan alloma.

O'qituvchi: Tezkor savollar orqali bilimingizni sinab oldik. Endi guruhlarini uy vazifasini qay darajada bajarganligini kuzatamiz.

1-guruh: Amir Temur hayoti.

O'quvchi: Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh shahri yaqinida Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ildi.

O'quvchi: Amir Temur yoshligidan bilimga, chavandozlik, jang san'ati bilan shug'ullangan.

O'quvchi: Amir Temur o'z o'rtoqlarini atrofida birlashtirib, mo'g'ullarga qarshi kurashga otlangan.

O'quvchi: Amir Temur 1360-yillarda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Bu davrda Movorounnahrda mo'g'ullar hukmronlik qilar, Amir Temurning maqsadi mo'g'ullarni mamlakatdan quvib chiqarish edi.

O'quvchi: Shu maqsadda Amir Temur o'z ittifoqdoshi bilan birga mo'g'ul hukmdori Ilyosho'jaga qarshi maydonga chiqadi. Bu jang 1365-yilda bo'lib, u tarixda «Loy jangi» deb nom oladi.

O'quvchi: Amir Temur 1370-yilda Balx yaqinida Amir Husaynga qarshi maydonga chiqadi va uni mag'lub etib Movaraunnahr taxtiga o'tiradi.

O'quvchi: Amir Temur 1370-1405 yillar oralig'ida taxtni boshqaradi va 35 yil hukmronlik qiladi.

II-guruh: Amir Temur harbiy faoliyati.

O'quvchi: Amir Temur tarixda buyuk sarkarda sifatida tanilgan.

O'quvchi: Amir Temur 35 yil davomida hukmronlik qildi va bu davrda ko'plab urushlarni olib bordi.

O'quvchi: Bu urushlar tarixda 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik urushlarga bo'linadi.

O'quvchi: Bu urushlar davrida Amir Temur o'z davrining buyuk humkdorlariga qarshi maydonga chiqadi. Bular Oltin O'rda xoni To'xtamishxon, Hindiston hukmdori, Turk sultoni Boyazid edi.

O'quvchi: Bu kurashlarning g'alabaga erishishida Amir Temur qo'shini asosiy o'rin egallagan.

O'quvchi: Amir Temur qo'shinlari o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik, yuz minglik qismlarga bo'lingan.

3-guruh: Amir Temurning me'morchilik faoliyati.

O'quvchi: Amir Temur o'z hukmronligi davrida olib borgan janglari bilan bir qatorda saltanatda amalga oshirilgan bunyodkorlik faoliyati bilan ajralib turadi.

O'quvchi: Bu sohada Amir Temurning vayronaga aylangan Samarqandni poytaxtga aylantirish fikrini aytishimiz mumkin.

O'quvchi: «Temur tuzuklari»da bobomizning quyidagi so'zlari bayon etilgan. «Men qayerdan bir g'isht olsam, shu yerga 10 g'isht qo'ydim, qayerdan bir gul olsam, shu yerga o'n gul ekdim» deganlar.

O'quvchi: Shu so'zlarga isbot sifatida Tabrizda masjid, Sherozda Saroy, Bog'dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviyga maqbara qurdirgan.

O'quvchi: Amir Temur davri bunyodkorlik faoliyati tufayli «Samarqand- sayqali ro'yi zamin, ya'ni Samarqand- yer yuzining jannati» nomini oldi.

O'qituvchi: Mana o'quvchilarning uy vazifalarini qay darajada bajarganliklarini bilib oldik. Endi e'tiborimizni yangi mavzuga qaratamiz.

Mavzu: Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati

Reja:

1. Samarqand- davlat poytaxti
2. Amir Temur davri me'morchiligi
3. Amir Temur bog'lari.

Ko'p yillik harbiy yurishlari bilan Sharqning juda ko'p obod viloyatlarini zabt etgan Amir Temur- mamlakat poytaxti Samarqandning obodonligiga katta ahamiyat beradi. Amir Temurda har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Amir Temur nafaqat Movaraunnahrda balki saltanat tarkibiga kirgan hududlarda Tabrizda masjid, Sherozda Saroy, Bog'dodda madrasa, Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qurdiradi.

Amir Temur ona shahri Keshda OqSaroy binosini qurdiradi, Kesh me'morchiligiga alohida e'tibor berdi. Shu tufayli bu shahar «Qubbatul elm val odob» unvoniga ega bo'ldi. M.Bobur Amir Temur to'g'risida fikr bildirar ekan «Keshning qobiliyati shahar bolarga Samarqandcha emas edi. Oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni ixtiyor qildi».

Bu davrda Shohi Zinda me'moriy yodgorliklari guruhining Shodmulk og'a, Amir Husayn maqbaralari hozirgi vaqtda Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Jome' masjid, Go'ri Amir daxmasi kabi binolar barpo etildi.

Amir Temur amalga oshirilgan ishlar to'g'risida baho berish uchun Shahrisabzdagi Oqsaroyning naqshinkor va parchinkor peshtoqining guldor naqshlari orasida «Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq» degan xisobnoma bitilgan.

Samarqand yaqinidagi qishloqlarga ham katta e'tibor berilgan bo'lib, ularga dunyoviy mashhur shahar nomlari- Damashq, Parij kabi nomlar berilgan.

Amir Temur me'morchiligi va bunyodkorligi to'g'risida 1403-1404-yillarda Samarqandda bo'lgan ispan elchisi Klovixo o'z esdaliklarida yozib qoldirgan.

Amir Temur Samarqand shahri atrofida ko'plab bog'lar ham barpo qildirgan. Bular Bog'idilkusho, Bog'inav, Bog'ishamol kabi chorbog'lar va go'zal ko'shklar qurdiradi.

Shaharning sharq tomonida Bog'idilkusho joylashgan.

Shaharning janubida Bog'ibehisht qurilgan. Uning bir chekkasida hayvonot bog'chasi ham bo'lgan. Bog'inav va Bog'ishamol sayrolari to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lgan. Qolgan bog'lar ham o'ziga xos uslubda qurilgan.

Amir Temur davrida olib borilgan me'morchilik faoliyati natijasida Samarqand gullab yashnadi. Uning go'zalligi to'g'risida zamondoshlar quyidagi so'zlarni aytganlar, «Samarqand sayqali- ro'yi zamin» ya'ni «yer yuzining jannati» nomiga ega bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Samarqand yanada rivojlandi, gullab yashnadi. Temuriylar davriga oid imoratlar qayta ta'mirlandi. Samarqand va Amir Temur hazriga katta e'tibor berildi.

1996-yilda Amir Temurning 660 yilligi butun O'zbekistonda, Samarqandda va dunyoning 30 dan ortiq davlatlarida nishonlandi.

Samarqandda Amir temur haykali o'rnatildi.

O'qituvchi: Endi mavzu yuzasidan mustahkamlash mashqi-testlarni bajaramiz.

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi qatnashadi.

1-guruhga

1. A.Temur tug'ilgan sanani belgilang.

a) 1336 yil 9 mart b) 1336 yil 9 aprel s) 1336 yil 9 may d) 1363 yil 9 aprel

2. A.Temurning «Loy jangi» qachon bo'lgan?

A) 1358 y b) 1362 y s) 1365 y d) 1368 y

3. A.Temur davlati poytaxti?

A) Kesh B) Buxoro S) Samarqand D) Toshkent

2-guruhga

1. A.Temur taxtga o'tirgan davr

a) 1365 y b) 1336 y s) 1370 d) 1375

2. OqSaroy qayerda qurilgan?

A) Samarqand b) Buxoro S) Kesh d) Toshkent

3. Amir Temur saroyida qaysi davlatdan elchi kelgan?

A) Ispaniya b) Fransiya S) Angliya d) Italiya

3-guruh:

1. Amir Temurning nechta o'g'li bo'lgan

A) 1 b) 2 s) 3 d) 4

2. Amir Temur Movaraunnahrdan kimlarni quvib chiqardi.

A) arablarni b) mo'g'ullarni S) Xitoy d) ruslar

3. Amir Temur tug'ilgan joy

A) Buxoro b) Samarqand S) Kesh d) Xiva

Mana o'quvchilarni javoblarini ham eshitdik. Endi dars jarayonida ishtirok etgan guruhlarini to'plagan ballarini e'lon qilamiz, 4 ta tur bo'yicha 1-guruh 19 ball, 2 guruh 19,5 ball, 3-guruh 19 ball to'pladi.

Darsimizning natijalari quyidagicha.

Darsning eng faol guruhi 2-guruh

Darsning eng faol o'quvchisi Rahimov A

Darsning eng zukko o'quvchisi Valixanova Z

Uyga vazifa: Bugungi kunda Samarqand va O'zbekistonda joylashgan me'moriy obidalarni o'rganamiz. Amir Temur me'morchiligi va bunyodkorligi faoliyati mavzusini mustahkamlaymiz.

Razzoqov Shamsiddin – Mingbuloq tuman 6-sonli maktabi oliy toifali o'qituvchisi

Sinf: 7

Fan: O'zbekiston tarixi

Mavzu: "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni va uni boshlanishi, qo'zg'olonning rahbari, qo'zg'olonning borishi va yengilish sabablari, Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon va ularning O'zbekiston xalqlari tarixida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish.

b) Tarbiyaviy maqsad:

Vatanparvar, mard qahramonlar hech qachon unutilmasligini tushunib yetadilar. O'quvchilarda milliy iftixor, sadoqat tuyg'ularini, qat'iyatlilik fazilatlarini shakllantirish, ajdodlar ruhiga hurmat va ularni Vatan uchun xizmatlarini o'rnak qilib, ezigulik g'oyalarida tarbiyalash.

s) Rivojlantiruvchi maqsad:

O'z vatanini, uyini mahallasini himoya qilish uchun doimo hushyor bo'lish lozimligini anglab oladilar.

Kutilayotgan natijalar:

O'quvchilar Muqanna va "Oq kiyimliklar" qo'zg'olonning ahamiyati va mahalliy aholiga ta'siri haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishadilar, yurtni himoya qilish har bir o'quvchining burchi ekanligini tushunib oladilar. Shuningdek, ularda matnlar ustida ishlash, mustaqil fikrlash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Darsning turi: aralash, yangi bilimlarni o'rganish

Dars usuli: Noan'anaviy dars: "Aqliy hujum", "o'yla, izla, top" o'yinini o'tkazish, "Taqqoslash".


Darsning jixozi: Yozuv doskasi, darslik, kompyuter va proyektor, O'zbekiston siyosiy xaritasi, "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloniga oid xarita, tarqatma didaktik materiallar, Mavzuga oid adabiyotlar, vatman qog'oz va rasmlar.

Fanlararo bog'lanish: Dars mavzusi "Tarixdan hikoyalar", jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, Vatan tuyg'usi fanlari bilan bog'lab o'rganiladi.

Darsning tuzilishi

1. Tashkiliy qism	–	2 daqiqa
2. O'tilgan mavzuni takrorlash	–	10 daqiqa
3. Yangi mavzuni bayon etish	–	13 daqiqa
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	–	13 daqiqa
5. O'quvchilarni baholash	–	5 daqiqa
6. Uyga vazifa berish	–	2 daqiqa

Darsning shiori: "O'zingni, o'z uyingni o'zing asra"



Tashkiliy qism.

O'qituvchi va o'quvchilar o'zaro salomlashgach, davomat aniqlanadi. Sinf darsni boshlashga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilingach, darsga olib kirilgan jihozlar foydalanish uchun tayyorlab qo'yiladi. Mavzuga oid xarita doska yoniga ilinadi. Sinf uch guruhga bo'linadi, bunda guruhlar bilimiga ko'ra taxminan teng kuchga ega bo'lishi, har bir guruhning o'z sardori bo'lishi e'tiborga olinishi lozim. Guruhlar o'zlariga nom qo'yadilar, nomlanish dars mavzusiga mos bo'lishi lozim. Masalan, Abu Muslim, Muqanna, Rofe ibn Lays.

O'tilgan mavzuni takrorlash

O'qituvchi uyga berilgan topshiriqni tekshiruvdan o'tkazib o'quvchilarni ikki bosqichda o'tgan mavzu yuzasidan sinovdan o'tkazadi.

Birinci topshiriq

Aqliy hujum: O'qituvchi guruhlariga o'tgan mavzu yuzasidan ikkitadan savol beradi, o'ylab olish uchun 20-30 soniya vaqt beriladi. Savolga guruhdan bir kishi og'zaki javob berishi lozim.

O'tgan mavzu bo'yicha savollar

Birinch guruhga

1-Savol: Umaviylarga qarshi umumiy norozilik qaysi xalifa hukmronlik qilgan davrda nihoyatda kuchaydi?

Javob: xalifa Marvon II (744-750) hukmronlik qilgan davrda

2-Savol: Abu Muslim qullar uchun qayerda maxsus joy tashkil ettiradi?

Javob: Shavval qishlog'ida

Ikkinchi guruhga

1-Savol: Abu Muslim qo'zg'oloni boshlanishiga nima sabab bo'lgan?

Javob: Xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi

2-Savol: Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini qachon egallaydi?

Javob: 748-yilning boshida

Uchinchi guruhga

1-Savol: Qo'zg'alongchilar tarkibida qaysi qatlam vakillari bor edi?

Javob: Arab zodagonlari, Movarounnahr va Xurosonning mahalliy mulkdor dehqonlari, xalifalik Sharqidagi mazlum aholi, shahar hunarmandlari va qishloq kadivarlari hamda qullar

2-Savol: Abbosiylarxonadonidan bo'lgan birinchi xalifa?

Javob: Abul Abbas Saffoh (750-754)

Ikkinchi topshiriq.

Guruhlariga Jadvalli test savollari yozilgan tarqatma qog'ozlar beriladi. O'qituvchi tomonidan bitta variantdagi savollar yechib ko'rsatiladi va savollarga qanday javob yozish kerakligi tushuntiriladi. Savollarga javob berish uchun guruhlariga 2 daqiqa vaqt ajratiladi.

Jadvalli testdan namuna.

Javob berish uchun savollar:

T/r	Savollar	Var iant	Javob uchun katakchalar
1	Marvon II	A	
2	Ziyod ibn Solih	B	
3	Abu Muslim	C	
4	Dovud	D	
5	Abul Abbos Saffoh	E	

Savollarga javob yozilganidan so'ng:

T/r	Savollar	Var iant	Javoblar
1	Marvon II	A	744-750 yillarda xalifa bo'lgan
2	Ziyod ibn Solih	B	751-yil Xitoy qo'shinini yengigan sarkarda
3	Abu Muslim	C	Kufalik Targ'ibotchi
4	Dovud	D	Shavval qishlog'ida qullarga boshliq targ'ibotchi
5	Abul Abbos Saffoh	E	750-754 yillarda xalifa bo'lgan

Jadvalli test savollari

1-guruhga

T/r	Savollar	Var iant	Javob uchun katakchalar
1	746-yil	A	
2	748-yil	B	
3	750-yil	C	
4	751-yil	D	
5	755-yil	E	

2-guruhga

T/r	Savollar	Var iant	Javob uchun katakchalar
1	Qo'zg'olonning sababi	A	
2	Qo'zg'olondan arab zodagonlarining maqsadi	B	
3	Qo'zg'olondan mahalliy mulkdorlarning maqsadi	C	
4	Qo'zg'olondan mehnat ahlining maqsadi	D	
5	Qo'zg'olondan qullarning maqsadi	E	

3-guruhga

T / r	Savollar	Va ria nt	Javob uchun katakchalar
1	Moxuvon qal'asi	A	
2	Shavval qishlog'i	B	
3	Talos vodiysi	C	
4	Buxorodagi qo'zg'olon	D	
5	Qo'zg'olonning natijalari	E	

Guruhlar jadvalli testlarga javob berganidan so'ng o'qituvchi uni o'quvchilar yordamida tekshiradi. Har bir to'g'ri javobga 1 ball, jami 5 ballgacha baho qo'yiladi. Jadvallar quyidagi ko'rinishga keladi.

1-jadval

T/r	Savollar	Var iant	Javoblar
1	746-yil	A	Abu Muslim Xurosonga keladi.
2	748-yil	B	Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egallaydi.
3	750-yil	C	Arab xalifaligida hokimiyat umaviylardan abbosiylar qo'liga o'tadi.
4	751-yil	D	Talos vodiysida Xitoy qo'shinlariga zarba berilib, ularni mamlakat hududidan quvib chiqarildi.
5	755-yil	E	Abu Muslim xalifa buyrug'iga binoan o'ldirildi.

2-jadval

T/r	Savollar	Var iant	Javoblar
1	Qo'zg'olonning sababi	A	xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi
2	Qo'zg'olondan arab zodagonlarining maqsadi	B	hokimiyatni abbosiylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarmoqchi edilar
3	Qo'zg'olondan mahalliy mulkdorlarning maqsadi	C	mamlakatda siyosiy jihatdan arablar bilan tenglashish va iloji topilsa, mamlakatni xalifalikdan ajratib, uni mustaqil idora qilish
4	Qo'zg'olondan mehnat ahlining maqsadi	D	umaviylarning zulmi, og'ir soliqlar va uzluksiz majburiy hasharlardan qutulish
5	Qo'zg'olondan qullarning maqsadi	E	qullik kishanlaridan qutulish

3-jadval

T/r	Savollar	Variant	Javoblar
1	Moxuvon qal'asi	A	Abu Muslim qarorgohi
2	Shavval qishlog'i	B	Abu Muslim qullar uchun maxsus tashkil etgan joy
3	Talos vodiysi	C	751-yilda Ziyod ibn Solih boshchiligida qo'shin Xitor qo'shinlarini mag'lub etgan hudud
4	Buxorodagi qo'zg'olon	D	750-yilda mehnatkash aholi o'rtasida abbosiylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlardan biri
5	Qo'zg'olonning natijalari	E	Xalq ommasiga berilgan va'dalardan birortasi ham amalga oshmadi, Abu Muslim avvaliga Xurosonga noib etib tayinlanadi, 755-yilda qurolsiz holda saroyga taklif etilib o'ldiriladi.

O'tilgan mavzu nihoyasiga yetkazilgach o'qituvchi yangi mavzuga o'tadi. Yangi mavzuni doskaga rejalari bilan yozib qo'yadi va uni tushuntirishni boshlaydi. Yangi mavzuni bayon etishga jami 13 daqiqa vaqt beriladi.

Yangi mavzuni bayon etish

MAVZU: "OQ KIYIMLIKLAR" QO'ZG'OLONI

REJA:

1. "Oq kiyimliklar"
2. Qo'zg'olonning boshlanishi
3. Qo'zg'olonning borishi
4. "Oq kiyimliklar"ning yengilishi va uning sabablari
5. Rofe ibn Lays qo'zg'oloni

O'qituvchi yangi mavzuni quyidagi chizmalar asosida bayon etadi. Bu chizmalar oldindan tayyorlanadi va vatman qog'ozda doska yoniga ilib qo'yiladi. (**1-chizma**)

"Xaritadan topish mashqi"

O'qituvchi yangi mavzuni bayon etish davomida aytib o'tgan turli davlat, shahar va qal'a nomlarini doskaga yozib boradi va guruhlardan darslikdan foydalanib qayerda joylashganligini topishni hamda xaritadan ko'rsatishni so'raydi.

Xaritadan foydalanish bo'yicha o'qituvchi tahminan quyidagicha savol-javob o'tkazishi mumkin:

1-guruh

Savol: "Movarounnahr" so'zini ma'nosi nima? Xaritadan ko'rsating.

Javob: "Daryoning narigi tomoni", "Daryo orti" degan ma'noni anglatadi

2-guruh


Savol: Marv shahri hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan? Xaritadan toping.

Javob: Turkmaniston

3-guruh

Savol: Naxshab va Kesh shaharlari hozirgi qaysi viloyat hududiga to'g'ri keladi? Shaharlarni xaritadan toping.

Javob: Qashqadaryo viloyati



O'qituvchi xaritadan topish bo'yicha savol-javoblarni mavzuni butkul tushuntirgunicha davom ettiradi. Bunda u quyidagi joy nomlariga atab savollar tuzadi va guruhlariga navbatma-navbat berib boradi:

- Xuroson,
- Sug'd,
- Som qal'asi,
- Eloq,

- Shosh,
- Chag'oniya,
- Narshax qal'asi,
- Buxoro,

- Nishopur,
- Samarqand,
- Farg'ona,
- Xorazm

"Xaritadan topish mashqi" o'quvchilarni topqirlikka, izlanishga va ma'lumotlarni yodda saqlashga chorlovchi o'yindir. Bunda o'quvchilar har bir joy nomiga diqqat bilan qaraydilar va uni esda saqlashga urinadilar. Bu mashqdan o'qituvchilar yangi mavzuni bayon etishda yoki uni mustahkamlashda foydalansalar, o'quvchilarni darsda olgan bilim va ko'nikmalari yanada ortadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Mavzuni mustahkamlash uchun guruhlariga test tarqatadi.

O'qituvchi guruhlariga oldindan 10 tadan test yozilgan tarqatma tayyorlaydi va guruhlariga beradi. Shartga ko'ra guruhlar testlarni tezlik bilan to'g'ri yechishi talab etiladi. Har bir to'g'ri javobga 2 ball beriladi va javoblar jamlanib 4 ga bo'linadi. Ya'ni agar birinchi guruh 9-10 ta savolga to'g'ri javob bersa 18-20 ball to'playdi. Uni 4 ga bo'linsa 5 ball chiqadi ($20:4=5$ yoki $16:4=4$ yoki $14:4=3,5$).

O'qituvchi tahminan quyidagi testlardan foydalanadi:

1-variant

1. Movarounnahrda bo'lib o'tgan "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?

A) 769-783-yillar B) 750-769-yillar C) 806-807-yillar D) 697-725-yillar

2. O'zbekiston tarixida Hoshim ibn Hakim rahbarlik qilgan qo'zg'olon qanday nom bilan ataladi?

A) "Qizil boshlilar" qo'zg'oloni B) "Sariq ro'mollilar" qo'zg'oloni
C) "Qizil qoshlilar" qo'zg'oloni D) "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni

3. Movarounnahrda bo'lib o'tgan yirik qo'zg'olon rahbari Muqannaning asl ismini aniqlang.

A) Hoshim ibn Hakim B) Muhammad ibn Hamadon
C) Rofe ibn Lays D) Qutbiddin ibn Hoshim

4. Quyidagi javoblardan qay birlari qo'zg'olon rahbari Muqannaga xosdir?

1) asl ismi Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy 2) Marv shahri yaqinidagi Koza qishlog'ida tug'ilgan 3) Movarounnahrda yollanma qo'shin darajasidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan 4) Marv shahri yaqinidagi Mahmudobod qishlog'ida tug'ilgan 5) boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan 6) yoshligida kudungarlik kasbi bilan shug'ullangan 7) Samarqand viloyatining Ishtixon viloyatida tug'ilgan 8) Xurosonda kichik lashkarboshi darajasidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan 9) o'zbek va tojik tillarida she'rlar ham yozib turgan 10) Marv shahrida umrining oxirigacha tunukasoz bo'lib ishlagan 11) yoshligida temirchilik bilan shug'ullangan 12) asl ismi Hoshim ibn Hakim

A) 1, 4, 5, 9, 11 B) 2, 5, 6, 8, 12 C) 3, 6, 7, 9, 12 D) 1, 2, 5, 10

5. Muqanna kimning g'oyalari asoslangan ta'limotni targ'ib etgan edi?

A) Moniy B) Zardusht C) Muhammad D) Mazdak

6. Dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi tarafdori bo'lgan va buni zo'rlik yo'li bilan amalga oshirishni yoqlab chiqqan qo'zg'olon rahbarini aniqlang.

A) Muqanna B) Abu Muslim C) Divashtich D) Spartak

7. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni rahbari Muqanna qarorgohi joylashgan qal'a nomini ko'rsating.

A) Marv yaqinidagi Moxuvon qal'asi B) Kesh yaqinidagi Som qal'asi

C) Naxshabdagi Ishtijon qal'asi D) Buxoro vohasidagi Narshax qal'asi

8. Ma'lumki, Muqanna qo'zg'olonchilari turli tabaqa vakillaridan tashkil topib, ularning maqsadlari ham turlicha edi. Shulardan mahalliy mulkdor dehqonlarning asosiy maqsadi nima edi?

A) Muqanna boshchiligidagi yirik saltanat tuzish

B) xalifalik hokimiyatini ummaviylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarish

C) mamlakatdan arablarni quvib, hokimiyatni o'z qo'liga olish

D) qullik kishanlaridan qutulish

9. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Mansur 775-yilda kimning boshchiligida harbiy kuchni Movarounnahrqa safarbar qiladi?

A) Jabroil ibn Yahyo B) Ziyod ibn Solih

C) Ubaydulloh ibn Ziyod D) Dovud

10. Abu Muslim o'ldirilganidan 20 yil so'ng ...

A) Muqannaning Som qal'asi qamalga olindi

B) xalifa qo'shinlari Muqanna qo'zg'olonchilari tomonidan tor-mor etildi

C) Movarounnahrda juda katta xalq qo'zg'oloni – "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni boshlandi

D) Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tarildi

2-variant

1. Ma'lumki, "Oq kiyimliklar"ning qo'zg'oloni 776 yildan Buxoro vohasida kuchayib ketadi. Ushbu vohada qaysi qal'a qo'zg'olonchilar qo'rg'oniga aylantirilgan edi?

A) Narshax qal'asi B) Moxuvon qal'asi C) Ishtijon qal'asi D) Som qal'asi

2. 777-yilda qaysi xalifa tomonidan Muqanna qo'zg'olonchilariga qarshi Samarqandga katta harbiy qo'shin yuboriladi?

A) Mahdiy B) Mansur C) Abul Abbas Saffox D) Marvon

3. 777-yilda "Oq kiyimliklar" kimlarni arablarga qarshi yordamga chaqiradilar?

A) xitoyliklarni B) xorazmliklarni

C) Sirdaryo vohasida yashovchi turkiy qabilalarni

D) Amudaryoning quyi vohasida yashovchi turkiy qabilalarni

4. "Oq kiyimliklar" joylashib turgan Samarqand qachon arablarga taslim bo'ladi?

A) 775-yilda B) 779-yilda C) 783-yilda D) 777-yilda

5. Arablar va Muqanna qo'zg'olonchilari o'rtasidagi kurashning oxirgi bosqichi qayerda bo'lib o'tadi?

A) Keshda B) Marvda C) Nishopurda D) Samarqandda

6. Muqanna qay tariqa halok bo'ladi?

A) istilochilarga taslim bo'lishni istamasdan o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ldi

B) arablar tomonidan asirga olinib, tili sug'urildi va otga bog'lab tilka-pora qilindi

C) arablarga taslim bo'lishni istamasdan o'z qorniga xanjar tiqib halok bo'ldi
D) mag'lubiyat alamidan Muqanna o'z buyrug'iga binoan xizmatkori tomonidan o'ldirildi

7. Qanday omil Muqanna qo'zg'olonchilarining yengilishiga asosiy sabab bo'ldi?

- A) Qo'zg'olonchilarning kamsonliligi
B) Qo'zg'olonchilarning uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganliklari
C) Qo'zg'olon qatnashchilari tarkibining turli tabaqa vakillaridan iboratligi
D) Movarounnahrda doimiy xitoyliklarning hujumi

8. Qanday sabablar "Oq kiyimliklar" qo'zg'olonning mag'lubiyatiga xizmat ko'rsatdi? 1) qo'zg'olonchilarning kamsonliligi 2) qo'zg'olonchilarning uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganlari 3) qo'zg'olonchilar tarkibining turli tabaqa vakillaridan iboratligi 4) mahalliy muldorlarning arablar tomoniga o'tib ketishi

5) Movarounnahrda doimiy xitoyliklarning hujumi 6) qo'zg'olonning uzoq davom etganligi 7) qo'zg'olonchilarning sodda va oddiy qurollarga ega bo'lganligi

- A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5, 7 C) 3, 4, 6, 7 D) 1, 4, 5

9. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni bostirilganidan necha yil o'tgach Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon boshlandi?

- A) 18 yil B) 20 yil C) 23 yil D) 25-yil

10. Kimlar Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishiga majbur qiladilar?

- A) Nuh, Ahmad va Yahyo B) Nuh, Nasr va Ismoil
C) Ahmad, Tohir va Ismoil D) Nuh, Mansur va Yahyo

Darsni yakunlash

Yangi mavzuni mustahkamlab olingach, o'qituvchi guruhlarini darsda qatnashganligini va savol-javobda faol ishtirok etgan o'quvchilarni umumlashtirib, ularga baho qo'yadi. Baholashga jami 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Shundan so'ng o'quvchilarga uyga vazifa beradi. Buning uchun o'qituvchi 3 daqiqa vaqt ajratadi.

Uyga vazifa:

1. Mavzu oxirida berilgan savollarga javob berish
2. Quyidagi jadvalni solishtirgan holda to'ldirish

T/R	Solishtirish uchun savollar	Gurak va Divashtich	Abu Muslim qo'zg'oloni	Oq kiyimliklar qo'zg'oloni
1	Qo'zg'olon bo'lishiga sabab			
2	Qo'zg'olon bo'lib o'tgan vaqt			
3	Qo'zg'olonchilarning tarkibi			
4	Qo'zg'olonchilarning maqsadi			
5	Qo'zg'olonning natijasi			
6	Qo'zg'olonning ahamiyati			

Qoriyev Abdumalik – ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi

Sinf: 8

Fan: Jahon tarixi

Mavzu: XVI-XIX asrning 70-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Afg'oniston

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda Afg'onistonda mustaqillik uchun kurash, Afg'on-Eron munosabatlari, Durroniylar, Barakzaylar sulolasi va ularning hokimiyat tepasiga kelishi, Afg'on-ingliz urushi, Afg'onistonning xalqaro munosabatlarda tutgan muhim o'rni haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni diniy bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik ruhida tarbiylash, ularda insoniylik, Vatanparvarlik, yurtga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Yoshlarda kuzatuvchanlik va tadqiqodchilik ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilar xalqaro miqyosda ayrim kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlar ichki ishlariga aralashishi salbiy oqibatlarga olib kelishini chuqurroq tushunib oladilar, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarish malakalari shakllantiriladi.

Darsning umumiy maqsadi va kutilayotgan natija: O'quvchilar Afg'onistonning tarixi, o'tmishi va buguni haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, Barakzaylar sulolasini hokimiyat tepasiga kelishi, ingliz-afg'on urushi va uning oqibatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar va bulardan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Darsning turi: O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish va mustahkamlash

Darsning usuli: Guruhlarda ishlash, noan'anaviy usullarda o'yinlar, boshqotirma yechish.

Darsning jihozi: 8- sinf. Jahon tarixi darsligi, dunyo siyosiy xaritasi, mavzuga oid rasmlar va kitoblar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari, tarqatma materiallar, test savollari, kompyuter va videoproyektor.

Darsning tuzilishi.

- | | |
|---------------------------------|-------------|
| 1.Tashkiliy qism | - 5 daqiqa |
| 2.O'tgan mavzuni mustahkamlash. | - 10 daqiqa |
| 3.Yangi mavzuni o'rganish. | - 12 daqiqa |
| 4.Yangi mavzuni mustahkamlash. | - 11 daqiqa |
| 5. Dars yakunlarini chiqarish | - 5 daqiqa |
| 6. Uyga vazifa berish. | - 2 daqiqa |

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlaydi. Darsga olib kirilgan jihozlar va ishlanmalar foydalanish uchun tayyorlab qo'yiladi. Sinf o'quvchilari darsni boshlashga tayyor ekanligi ko'zdan kechiriladi. O'quvchilardan 4 ta guruh shakllantiriladi. Guruhlar o'zlariga nom qo'yib olishlari mumkin. Bunda guruhlar nomlanishi dars mavzusiga (Masalan, Durroniylar, Barakzaylar, Fathxon, Do'st Muhammadxon) mos bo'lishi lozim.


Shundan so'ng, o'qituvchi ma'naviyat daqiqasida mamlakatimizning mustaqillikka erishishi va qo'shni davlatlar bilan aloqalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Shanhay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishi va 6+3 bitimini tuzilishida muhim rol o'ynaganligiga to'xtalib, Afg'onistonda bugungi kundagi vaziyatga hamda voqealarga e'tibor qaratadi.

2. O'tgan mavzuni mustahkamlash. (10 daqiqa)


Dastlab o'qituvchi uyga berilgan vazifalarni tekshirib chiqadi. Shundan so'ng ikki bosqichda o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi.

Birinchi bosqich(6 daqiqa)

Guruhlarga kalit so'zlar yozilgan tarqatma tarqatiladi. Kalit so'zlarning javobini topish uchun 1 daqiqa, uni izohlash uchun har bir guruh uchun 1 daqiqadan vaqt beriladi.



O'quvchilar topshiriqni to'g'ri bajarsalar, quyidagi chizmalar hosil bo'ladi.



(Ushbu dars ishlanmadan foydalanuvchi, yuqoridagi javoblarga tayanib "Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi" degan chizmani to'ldirib qo'yadi).

Ikkinchi bosqich (4 daqiqa)

Bu bosqichda "Juftini top o'yini" o'tkaziladi. O'qituvchi doska yoniga guruhlardan jami 10 nafar o'quvchini chiqaradi. Ularni har biriga bittadan tarqatma qog'oz beradi. Tarqatmalarning 5 tasiga sanalar yozilgan bo'lib, qolgan 5 tasiga esa ushbu sanalarda bo'lib o'tgan voqealar yozilgan bo'ladi. Birinchi o'quvchi qo'lidagi qog'ozda yozilgan sanani o'qiydi, shu zahoti ushbu sanada bo'lib o'tgan voqea yozilgan qog'ozni olgan boshqa bir o'quvchi uning yoniga keladi va qattiq ovoz bilan qo'lidagi tarqatmada yozilgan ma'lumotni o'qiydi.

Masalan,

Birinchi o'quvchi:

1828-yilda Rossiya...

yettinchi o'quvchi:

Turkiyaga urush e'lon qildi

Birinchi o'quvchi va yettinchi o'quvchi birlashib:

1828-yilda Rossiya...

Turkiyaga urush e'lon qildi

O'qituvchi tarqatmalarga quyidagi sanalarni va ularda bo'lib o'tgan voqealarni yozishi mumkin:

1-o'quvchi:	1827-yilda Londonda ...
2-o'quvchi:	1829-yilda ...
3-o'quvchi:	1830-yilda Fransiya...
4-o'quvchi:	1840-yilda ...
5-o'quvchi:	1853-yil ...

6-o'quvchi:	Usmonli turklar imperiyasining «hududiy yaxlitligi va mustaqilligini» ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish to'g'risida bitim
7-o'quvchi:	Jazoirni bosib oldi.
8-o'quvchi:	Adrianopol tinchlik shartnomasi
9-o'quvchi:	Rossiya tarixida Qrim urushi nomini
10-o'quvchi:	Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim

O'tgan mavzu yuzasidan uy vazifasi va ikkala bosqichda berilgan topshiriqlar bo'yicha guruhlar to'plagan ballar jamlab e'lon qilinadi. So'ngra yangi mavzu va uning rejasi bayon qilinadi.

3.Yangi mavzuni o'rganish. (12 daqiqa)


Doskada videoprojektor orqali yangi mavzuning taqdimoti namoyish etiladi.

Mavzu: XVI-XIX asrning 70-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Afg'oniston.

Reja:

1. Mustaqillik uchun kurash.
2. Afg'oniston – Eron munosabatlari
3. Afg'oniston davlatining tashkil topishi.
4. Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi
5. Afg'on – Buyuk Britaniya urushi.
6. Afg'oniston 1842-1870-yillarda xalqaro munosabatlarda

Quyidagi slaydlar birin ketin namoyish etiladi:



Afg'oniston - Eron munosabatlari

Qandahor xoni 1722- yilda Eron poytaxti Isfahonni egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi.

Nodir Quli 1730-yilda Eronni afg'on bosqinchilaridan ozod etdi

1736-yilda Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi

1738-yilda Afg'onistonni ham bo'ysundirdi

Afg'onistonni itoatda tutish uchun Erondan 12 ming jangchini oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi



AFG'ONISTON DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

1741- yilda Nodirshoh vafot etdi

1747- yilda afg'onlarning abdali qabilasi boshlig'i Ahmadxon qabila xonlarining jirg'asida (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qilindi

Ahmadshohning nabirasi Zamonshoh (1793-1801) bobosining bosqinchilik urushlarini davom ettirishga urinib ko'rdi

Ahmadxon o'ziga «Durri-Duron» unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini durrani nomi bilan o'zgartirdi



Afg'oniston 1842-1870-yillarda xalqaro munosabatlarda


- 1843- yilda «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini ham bo'ysundirdi
- Do'st Muhammadxon 1855- yilda ingliz - afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi
- 1857- yilda Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi
- 1863- yilda Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida toju taxt uchun kurash avj oldi
- 1870- yilga kelganda Afg'oniston mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi
- **Durri-Duron** - javohirlar javohiri

4.Yangi mavzuni mustahkamlash. (11 daqiqa)

Birinchi bosqich (6 daqiqa)

Darsning ushbu bosqichida “Kim chaqqon” o'yini o'tkaziladi. Unda o'qituvchi guruhlariga A4 formatda boshqotirma tarqatadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib boshqotirmani to'ldirsa, o'sha guruh o'yin g'olibi hisoblanadi.

Boshqotirma to'g'ri to'ldirilsa Afg'onistonda hukumronlik qilgan sulolaning nomi hosil bo'ladi.



Boshqotirma savollari

- 1) 1841-yil Kobulda ko'tarilgan qo'zg'olonda katta rol o'ynagan shahs.
2) Afg'onlarning Abdali qabilasi boshlig'i. 3) Afg'onistonda XVIII asr o'rtalarida hokimyatga kelgan sulola. 4) 1709-yilda Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan viloyat. 5) 1838-yilda Buyuk Britaniya askarlari tomonidan egallangan shahar. 6) Afg'onistonda 1793-1801-yillarda hukumronlik qilgan shahs.
7) 1826-yilda taxtni egallab, o'zini amir deb e'lon qilgan hukumdor Do'st ...
8) 1709-yilda Eronga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qilgan xon Mir ...
9) Afg'on qabilasi. 10) Durroniylar davrida bosh vazir lavozimini egallab olgan barakzaylar yetakchisi. 11) 1736-yilda Nodir Quli shoh bo'lgan davlat.

Boshqotirma to'g'ri to'ldirilsa quyidagi ko'rinishga keladi:

							7			
							M			
							U			
			4				H			
	2	3	Q				A	8	9	
1	A	D	A				M	V	G	
A	H	U	N							
K	M	R	D	5	6	M	A	I	F	E
B	A	R	A	K	Z	A	Y	L	A	R
A	D	O	H	O	A	D	S	Z	T	O
R	X	N	O	B	M	X	X	A	H	N
Sh	O	I	R	U	O	O	O		X	
O	N	Y		L	N	N	N		O	
H		L			Sh				N	
		A			O					
		R			H					

Ikkinchi bosqich (5 daqiqa)

Bu bosqichda guruhlardagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar doska yoniga chiqariladi va ular o'rtasida test yechish musobaqasi o'tkaziladi. O'quvchilarga bittadan test yozilgan tarqatma beriladi va ular testni o'qib javob beradilar. Qolgan o'quvchilar ular aytayotgan javobni to'g'ri-noto'g'riligini tekshirib boradilar.

Quyidagi testlardan foydalanib bellashuvni o'tkazish mumkin:

1. Nechanchi yilda Qandahor viloyatida Eron bosqinchiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan?
A.1649-yil **B.1709-yil** C.1722-yil D.1730-yil
- 2.Quyidagi qaysi javobda Eron poytaxti keltirilgan?
A. Kobul B. Qandahor **C.Isfahon** D.Hirot
3. Qaysi afg'on shohi o'zining turli g'alabalari tufayli "Durri-durron" unvonini qabul qilgan?

A. Ahmadshoh

B. Mir Vaysxon

C. Nodirshoh

D. Fathxon

4. 1826-yilda Afg'onistonda hokimiyatga kelgan Do'st Muhammadxon qaysi suloladan edi?

A. Gilza

B. Abdali

C. Durroniylar

D. Barakzaylar

5. Dars yakunlarini chiqarish va baholash (5 daqiqa)

Darsning yakunlarini chiqarish uchun, o'quvchilarning tomonidan topshiriqlar bo'yicha to'plangan ballarni hisoblash va munosib o'rinlarni taqsimlash lozim. Dars mobaynida faol qatnashgan o'quvchi va guruhlarini turli nominatsiyalarda baholanadi va rag'batlantiriladi.

Nominatsiyalar:

Eng faol guruh

Eng topqir guruh

Eng tekor guruh

Eng faol o'quvchi

Eng foydali o'quvchi

6. Uyga vazifa berish (2 daqiqa)

O'tilgan darsning savol va topshiriqlarini yana bir karra o'rganib chiqish, qo'shimcha adabiyotlardan hamda internet saytlaridan mavzuga oid yangi ma'lumotlar to'plash.

Ismatullayeva Muhayyo – Uchqo'rg'on tuman 42-umumta'lim maktabi tarix o'qituvchisi

Sinf: 6

Fan: Tarix

Mavzu: Buyuk ipak yo'li.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda Buyuk Ipak yo'li mavzusidagi La'l yo'li, Shoh yo'li, Ipak yo'li va ularning mamlakatimiz tarixidagi o'rni va ahamiyati haqida bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni o'z ustilarida mustaqil ishlashga o'rgatish. Vatanparvarlik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ma'naviy va madaniy meroslarimizni ko'z qorachig'iday asrab avaylashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni darsga oldindan tayorgarliklarini xis qildirish. Tarix faniga qiziqishlarini dars davomida turli musobaqalar uyushtirish yo'li bilan oshirib borish. Qadimiy savdo yo'llari hozirgi taraqqiyotimizning beshigi ekanligini chuqur anglatish.

Darsning turi: Aralash dars

Dars usuli: Kichik ma'ruza. Zamonaviy.

Dars jihozi: Prezident ma'ruzasi, darslik, dars ishlanma, ko'rgazmali qurollar, tarqatma va didaktik materiallar va dunyoning siyosiy haritasi.

Texnik vositalar: televizor, DVD va ko'rgazmalar va elektron darslik yozilgan disklar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

2 daqiqa

II. Ma'naviyat daqiqasi

6 daqiqa

III. O'tilgan mavzuni mustahkamlash

5 daqiqa

IV. Yangi mavzu bayoni

15 daqiqa

V. Yangi mavzuni mustahkamlash

12 daqiqa

VI. Darsni yakunlash.

3 daqiqa

VII. Uyga vazifa

2 daqiqa

I.Tashkiliy qism: Salomlashish. Davomatni aniqlash.

II. Ma'naviy-siyosiy daqiqa: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida ro'li va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan ma'ruzasi haqida tushuncha berish.

O'quvchilarga Prezident ma'ruzasida ishlatilgan so'zlarni izohi keltiriladi.

AVESTO – miloddan oldingi VI asrda yaratilgan kitob. "Avesto" "o'rnatilgan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'riqnomasi, yo'li" degan ma'noni anglatadi.

BAG'RIKENGLIK – (tolerantlik) - (lotincha "tolerare"-«sabr-toqat», "chidamoq") jamiyatdagi turfa madaniyatlik, plyuralizm, turli-tumanlilik va xilma-xilliklarning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to'g'ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabat. O'zbek tilida bag'rikenglik sabrlilik, toqatlilik, bardoshlilik, chidamlilik kabi bir qator sinonimlarga ega. Bag'rikenglik g'oyasi uzoq tarixga ega bo'lib, ushbu tushuncha asrlar davomida shakllana bordi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda.

JAMIYATNI YANGILASH – jamiyatning hamma sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirish.

MA'RIFATLILIK – keng qamrovli, serqirra fazilat bo'lib, insonning o'qimishligi, ma'rifatga intiluvchanligi, bilimdonligi, olijanoblighi kabi xislatlarni anglatadi. O'z xalqining tarixini, milliy va diniy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilgan, qadrlagan, milliy mansubligini anglagan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'uradigan insonlarni ma'rifatlilik fazilatiga ega, deya olamiz.

MENTALITET – (lotincha "mens" – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

MA'NAVIY UYG'ONISH – milliy til va ma'naviyatni taraqqiy ettirish. Milliy o'zlikni anglash, milliy his - tuyg'ularni, g'ururni, vatanparvarlikni mustahkamlashni anglatadi.


MUSTAQILLIK – (arabchadan – tobe emaslik, ixtiyori o'zida, qaram emaslik) – erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish.

SIVILIZATSIYA – Muayyan ijtimoiy taraqqiyot bosqichida erishilgan moddiy va ma'naviy madaniyat bosqichi, madaniy taraqqiyot.

YUNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'orif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan hukumatlaroro tashkiloti.

III.O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

O'qituvchi uyga vazifani tekshirib, o'quvchilarga tezkor savollarni beradi va ularni darsga tayyorgarligini sinovdan o'tkazadi.



1. Friz bu –.....
2. Kushon podisholigi asoschisi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Kushon podisholigi kimning davrida gullab yashnadi?
4. Kushon davlati mavjud bo'lgan hududni zamonaviy xaritadan topish.

IV. Yangi mavzu bayoni:

Reja:

1. Qadimiy va go'zal O'zbekiston zamini – jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri.
2. Buyuk ipak yo'li.

1. Brinchi rejani yoritish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida ro'li va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan ma'ruzasidan quyidagi fikrlar keltiriladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi va voyaga yetishi — bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi

Islom KARIMOV

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat berib turibdi.

Mamlakatimiz tarixini o'rganar ekanmiz, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor tinchlikning ta'minlangani bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlardagi qo'shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit'asining katta qismini qamrab olgan.

Milodgacha bo'lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rta Yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'li nafaqat ushbu hududlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit'alar va davlatlar o'rtasida axborot almashuvini ta'minlashga ham xizmat qilgan.

Yangi texnologiya va ishlanmalarining (ipak, chinni buyumlar, porox, qog'oz va boshqa ko'plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo'jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, shuningdek, madaniy qadriyatlarining rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan va shu tariqa tsivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratgan.

Shu bilan birga, Buyuk ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G‘arb olamidagi ulug‘ alloma va mutafakkirlar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yetkazilgan. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, g‘oya va kashfiyotlarini o‘rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga kelishiga ham sabab bo‘lgan.

Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi chuqur asoslarga borib taqaladi. Bunda Markaziy Osiyoning Buyuk ipak yo‘lining muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligining ahamiyati kattadir. Chunki, Buyuk ipak yo‘li xalqlarning o‘zaro madaniy aloqalariga ham imkon yaratgan. U orqali O‘rta osiyolik olimlar Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim tibbiyoti qo‘lga kiritgan yutuqlar bilan tanishish imkoniga ega bo‘lgan.



Ayniqsa, o‘rta asrlarda Buyuk ipak yo‘lida Movarounnahrning ustuvor mavqega ega bo‘lishi yurtimiz ilm-fanining, jumladan, tibbiyot ilmining rivojlanishiga omil bo‘lgan.

Shu davrdan boshlab, tibbiyot ilmi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan farmatsevtika sohasi ham shakllana boshlagan. Bu davrga kelib O‘rta Osiyo shaharlarida maxsus dorixonalar va shifoxonalar mavjud bo‘lganligi Poykenda olib borilgan qazishmalar davomida

tasdiqlangan.

Qadim shaharda ochilgan xonalarning birida tibbiyotda va farmatsevtikada qo‘llaniladigan asboblarning jamlanmasi qayd etilgan. Topilmaning ahamiyati shundaki, ular orasida bugunda tibbiyotda murakkab jarrohlik amaliyotlarida qo‘llaniluvchi asboblarga o‘xshash asboblarning uchraydi. Bu o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi natijasida murakkab jarrohlik amaliyotlari ham o‘tkazilganligini tasdiqlaydi.

2. Ikkinchi rejani yoritishda 6-sinflar uchun berilgan elektron darslikdan foydalanib, Buyuk ipak yo‘li mavzusi bilan tanishamiz.

XVI asrga qadar Sharq bilan G‘arb xalqlari O‘rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li muhim o‘rin tutgan edi. Bu yo‘l milod-dan avvalgi II asrda vujudga kelgan va «Buyuk meridional yo‘l» deb atalgan. Bu yo‘lga «Ipak yo‘li» degan nom 1877-yilda nemis geografi F.Rixtgofen tomonidan berilgan.

Buyuk Ipak yo‘li tashkil topmasdan avval O‘rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo‘llar mavjud bo‘lgan.

Eng qadimgi yo‘llardan biri miloddan avvalgi III–II mingyillikda vujudga kelgan «La‘l yo‘li»dir. U Pomir tog‘laridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali o‘tgan. Pomirdan olinadigan yarim nodir la‘l toshi (lojuvard) Qadimgi Sharq mamlakatlari

zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan topilgan.

Boshqa biri Eron Ahamoniylari sulolasining yo'li bo'lib, «Shoh yo'li» deb atalgan. U miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini, O'rtayer dengizi bo'yidagi Efes, Sard shaharlarini Eron poytaxtlaridan biri – Suza bilan bog'lab turgan. Tag'in bir yo'l Eron, Baqtriya orqali Sug'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududidan o'tgan va Oltoygacha borgan.

Arxeologlar Tog'li Oltoydagi ko'chmanchilarning zodagonlari qo'rg'onlaridan miloddan avvalgi V–IV asrlarga oid Paziriq qo'rg'onini o'rganganda kigiz gilam, jun gazlamalar, oltin, jez va kumush buyumlar, O'rta Osiyo va Eron matolaridan tikilgan kiyimlar qoldiqlar topishgan. Barcha buyumlar yaxshi saqlangan, chunki qo'rg'onda 2500 yil davomida erimagan qalin muz qatlami yuzaga kelgan.

Buyuk Ipak yo'li 12 ming kilometrcha uzunlikda bo'lgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rtayer dengizi sohillarigacha borgan. Bu yo'lda Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqa qator qadimiy shaharlar joylashgan edi.

Sug'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, bezak buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan; Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasldor otlar, Badaxshondan la'l; Hindistondan O'rta Osiyoga ipgazlama matolar va paxtachigiti ortilgan karvonlar kelgan; Xitoydan guruch keltirilgan; O'rta Osiyodan Xitoyga uzum, yong'oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan.

Buyuk Ipak yo'lida joylashgan me'morchilik yodgorliklarini o'rganganda turli hunarmandchilik buyumlari, turli mamlakatlarning tangalari topilgan. Masalan, Termizdan Rim tangalari xazinasi, Afrosiyobdan Rim sopol shamdonlari, Misr muhrlari topilgan.

Ahamiyati

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb xalqlari O'rtasidagi keng madaniy ayirboshlashga imkon yaratib berdi.

O'rta Osiyo bu yo'lning asosiy tarmoqlari chorrahasida turar edi. Bu yerga turli mamlakatlar savdogarlari, hunarmandlari, olim va musiqa bilimdonlari qadam ranjida qilganlar.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarni ikki bosqichda sinovdan o'tkazadi.

Birinchi topshiriq

O'qituvchi sinfni 4 guruhga bo'lib oladi va guruhlariga "Aqliy hujum" tarzida savollar beriladi.

Aqliy hujum: O'qituvchi guruhlariga o'tgan mavzu yuzasidan ikkitadan savol beradi, o'ylab olish uchun 20-30 soniya vaqt beriladi. Savolga guruhdan bir kishi og'zaki javob berishi lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

Birinchi guruhga

1-Savol: Qaysi savdo yo'li mil. av. III-II ming yilliklarda ochilgan?

Javob: La'l yo'li

2-Savol: Qadimgi dengiz savdo yo'lini kimlar ochgan?

Javob: Finikiyaliklar

Ikkinchi guruhga

1-Savol: “La’l yo’li” qaysi hududdan boshlangan?

Javob: Pomir tog‘idan

2-Savol: Shoh yo’liga kim asos solgan?

Javob: Eron shohi Doro I

Uchinchi guruhga

1-Savol: “La’l” yana qanday nom bilan ataladi?

Javob: Lojuvard

2-Savol: Buyuk ipak yo’li qachon ochilgan va uzunligi qancha?

Javob: Mil. av. II asrda ochilgan, uzunligi 12000 km.


To‘rtinchi guruhga

1-Savol: Buyuk Ipak yo’li qayerdan boshlangan?

Javob: Xitoyning Xuanxe daryosi bo‘yidagi Sian shahridan

2-Savol: Buyuk ipak yo’lining yo‘nalishlarini ayting


Javob: 2 ta yo‘nalish:

- 1) Xitoydan – Samarqandga, undan  Eron orqali O‘rta dengizga
Shimoliy Kavkaz orqali Qora dengizga
- 2) Xitoydan – Pomir-Tyan-Shandan o‘tib Afg‘onistonga, undan Hindistonga


Ikkinchi topshiriq.

Bu bosqichda guruhlar bir-biri bilan “Klaster” to‘lg‘azish bo‘yicha baxslashadilar. Bunda guruhlarga “Savdo yo‘llari”, “La’l va Shoh yo’li”, “Buyuk ipak yo’li” va “Dengiz yo’li” deb yozilgan tarqatma qog‘ozlar beriladi. O‘qituvchi tomonidan bittadan katakcha namuna sifatida to‘ldirib qo‘yilgan bo‘lib, qolgan katakchalarni qanday to‘ldirish kerakligi tushuntiriladi. “Klaster”ga javob berish uchun guruhlarga 5 daqiqa, uni tekshirishga 2 daqiqa vaqt ajratiladi.


Klasterlar 1-guruhga




2-guruhga



3-guruhga




4-guruhga




O'qituvchi "Klaster"larni o'quvchilar ishtirokida tekshiruvdan o'tkazadi. Klaster mashqi o'quvchilarni xotirasini mustahkamlaydi, dunyoqarashini o'stiradi, aqlini charxlaydi.

O'qituvchi jadvallarni tekshirib bo'lgach, o'quvchilar ko'chirib olishlari uchun doska yoniga to'g'ri to'ldirilgan klasterlarni ilib qo'yadi.

1-jadval




2- jadval



3- jadval



4- jadval



VI. Darsni yakunlash.

Yangi mavzu mustahkamlab olingach, o'qituvchi o'quvchilar bergan savollarga atroflicha javob berib mavzuni umumlashtiradi. Aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirib baholaydi.

VII. Uyga topshiriq:

O'tilgan mavzuni mustahkamlash, savol va topshiriqlarga tayorlanish, yangi mavzu bilan tanishib kelish.

Dedamirzayeva M. – Chortoq tuman 32-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Sinf: 6

Fan: Tarix

Mavzu: Hindiston sivilizatsiyasi

Darsning ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarda Hindiston sivilizatsiyasi mavzusi haqida bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

- 1.O'quvchilarni o'z ustilarida mustaqil ishlashga o'rgatish.
2. Komil insoniylik, Vatanparvarlik, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash.
3. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy va madaniy meroslarni ko'z qorachig'iday asrab avaylashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- 1.O'quvchilarni darsga oldindan tayorgarliklarini xis qildirish.
- 2.Tarix faniga qiziqishlarini dars davomida turli musobaqalar uyushtirish yo'li bilan oshirib borish.
- 3.Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan darsning oxirgi daqiqalarda shug'ullanish.

Darsning turi: yangi tushuncha va bilimlarni hosil qilish.

Dars usuli: Zamonaviy, guruhlarda ishlash, B.B.B.

Dars jihozi: darslik, dars ishlanma, ko'rgazmali qurollar, tarqatma va didaktik materiallar va dunyoning siyosiy haritasi.

Texnik vositalar: televizor, DVD va ko'rgazmalar yozilgan disklar.

T/R	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash	12 daqiqa
3	Yangi mavzu ustida ishlash	17 daqiqa
4	O'rganilgan mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
5	Yakunlarni chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

O'qituvchi darsni musobaqa tarzida o'tkazadi Bunda, uchta guruhga qadimgi davlatlar nomi berilib, shu davlatlar haqida ma'lumotlar so'raydi, Dars davomida guruhlar o'z bilimlari bilan davlatlarini kuch-qudratini namoyon etishadi. Faol ishtirok etgan guruhga "rag'bat" nishonasi berib boriladi. Dars so'ngida eng qudratli davlat aniqlanadi.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

A) salomlashish, davomatni aniqlash

B) Ma'naviy-siyosiy daqiqa: dunyo habarlari va yurtimiz voqealari tahlili.

II.O'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.

I-guruh Misr davlati

II-guruh Mesopotamiya davlati

III-guruh Ahamoniylar davlati

Guruhlardagi o'quvchilar tezkorlik bilan belgilangan vaqt ichida o'z davlatlari haqida malumot berib o'tishlari dardkor.


III.Yangi mavzu ustida ishlash:

Yangi mavzuni yoritishda "BBB"usulidan foydalaniladi.

Bilardim	Bilmoqchi edim	Bilib oldim

Bu usulda dastlab guruhlar daftarlariga o'zlari bilgan va o'qigan bilimlari asosida Hindiston davlati haqida ma'lumotlar to'playdilar va jadvalning "Bilardim" ustunini to'ldirishadi. Bu ma'lumotlardan tashqari yana mavzuga doir qanday bilimlarni o'rganmoqchi ekanliklarini "Bilmoqchi edim" ustuniga yozadilar.

Miloddan avvalgi III mingyillikda Hind daryosi vodiysida yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshladi. Moxenjodaro va Xarappa shaharlari Hind daryosi havzasining eng yirik sivilizatsiyalari edi. Ikkalasi ham mustailkam mudofaa devorlari bilan himoyalagan, arki bo'lgan. Ko'chalar bilan biri biridan ajratilgan mavzelarda pishgan g'ishtdan qurilgan uylar topildi. Katta va chiroyli shahar bo'lgan. Moxenjodaro aholisi mohir kulol, zargar va sangtarosh edi. Aholining asosiy



Moxenjodardagi
ko'cha

mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Biroq miloddan avvalgi XVIII asrdan keyin Hind vodiysi manzilgohlari tez-tez ro'y berguvchi toshqinlar, o'rmonlar va changalzorlar kengayishi hamda tuproq oriqlab ketishi tufayli zavolga yuz tutadi.



Bu kabi sherlar
tasviri bilan
ibodatxona
ustunlari bezatilgan

Miloddan avvalgi 1500-yillarda Hindiston hududiga istilochilar bostirib kiradi. Olimlar farazicha, bosqinchi oriylar - Sharqiy Yevropa va Uralda yashagan ko'chmanchi qabilalar bo'lgan. Oriylar hujumidan keyin Moxenjodaro va Xarappa tamomila vayronaga aylanadi, bu sivilizatsiyalar qaytib o'zini tiklolmaydi.

Diniy e'tiqodlar. Qadimgi hindlar xuddi misrliklar va bobilliklar singari tabiatning ko'pdan ko'p hodisalari qarshisida ojiz edilar: tropik jalalar, suv toshqinlari, qurg'oqchilikdan qo'rqardilar. Hindlar tasavvurida tabiatni xudolar boshqarayotgandek tuyulardi. Qadimgi hind rivoyatlarida aytilishicha, Quyosh xudosi har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga tushadi. Quyosh tungi zulmatni parokanda qilib tashlab,

odamlarga harorat va yorug'lik ulashish niyatida ufqdan bosh ko'taradi. Momaqaldir o'q xudosi Indra osmondagi suvni surlikdan xalos aylagach, Yer yuzida qurg'oqchilik poyoniga yetibdi.

Hindlar ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etishgan. Masalan, filga sig'inishgan: Bosh xudolardan biri boshi filnikiga o'xshash donishmand Ganesha bo'lgan. Sigir esa hindlar orasida alohida ehtiromga sazovordir. Sigir muqaddas hayvon hisoblangan. Sigirni o'ldirgan kimsa jinoyatchi deb e'lon qilingan: bunday kishi jamiyatdan haydab yuborilar, hech kim u bilan muloqot qilishga haqli bo'la olmasdi.


Hindlar jon bir tanadan boshqasiga ko'chib o'tishiga e'tiqod qilishgan. Ular, vafot etganidan keyin odam baribir o'lmaydi, balki atigi boshqa bir mavjudotga evrilib, o'z tashqi qiyofasini o'zgartiradi, hayvonga, qumursqaga va o'simlikka aylanadi deb hisoblashgan. Inson vafot etganidan keyin kimga va nimaga aylanib qolishi esa uning bu hayotdagi xatti-harakatlari va amallariga bog'liq.



Ganesha –
donishmandlik xudosi



Sigir Hindistonda
muqaddas
hisoblanadi



Hind tabaqalari

Hind tabaqalari. Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab to'rt guruhga ajratilgan edi. Bu guruhlar kasta yoki varna deb atalgan, jumladan: kohinlar - braxmalar, jangchilar - kshatriylar, dehqon, hunarmand va savdogarlar - vayshyalar, xizmatkorlar va qullar - shudralar. Hi

Hindlarning e'tiqodicha, kastalardan har birini oliy xudo Braxma o'z jismining qandaydir bir qismidan dunyoga keltirgan ekan. Masalan, kohinlar uning dahanidan, jangchilar qo'llaridan, dehqonlar quymkhlaridan, xizmatkorlar esa oyoqlari tovonidan yaratilgan. Bolalar hamisha ota-onalari kastasiga mansub deb topilgan. Bir kastadan boshqasiga o'tishning ham iloji

bo'lmagan. Turli kastalarga mansub odamlar O'rtasida nikohga ham yo'l qo'yilmagan. Kastalardan birortasiga ham mansub bo'lmaganlar esa alohida maqomga ega bo'lishgan. Bundaylarni «chandal», ya'ni «hazar qilinadiganlar» deyishgan. «Chandallar» kastalarga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi, ular bilan bir dasturxonga o'tirish taqiqlangan edi. Uzoqdan ko'rinib ajralib turishlari, kimdir tasodifan ularga tegib ketmasligi uchun «chandallar» maxsus libos kiyib yurishlari kerak edi. Ular qishloqlardan tashqarida yashashga majbur edi.

IV.O'rganilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruh a'zolari yangi mavzudan o'rganganlarini "Bilib oldim" ustuniga yozib chiqishadi. Mavzuni yanada mustahkamlash uchun 5 yopiq test beriladi va javoblari o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

1. Hindistondan qaysi daryolar oqib o'tgan?(Hind, Gang)
2. Mil.av.1500-yilda Hindistonga qanday istilochilar bostirib kiradi?(oriylar)
3. Hindlarda tabaqalar nima deb atalgan?(kasta)
4. Tabaqalardan birontasiga ham mansub bo'lmaganlar qanday maqomga ega bo'lishgan?(chandal)
5. Boshi filnikiga o'xshash donishmand xudo nima deb atalgan?(Ganesha).

V. Darsdagi yakunlarni chiqarish.

O'tkazilgan musobaqada barch o'quvchilar baholanadi.ng ko'p "ragbat"olgan guruh g'olib deb topiladi. Xulosada o'qituvchi tarixiy jarayonlarni bog'lab, yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari orqaliasardagi fikrlar asosida mavzuni yakunlaydi.

VI.Uyga vazifa.

Mavzuni o'qib yanada mustahkamlash, bugungi kunda Hindistonda qanday o'zgarishlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar topib kelish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: Ma'naviyat, 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimida nutqi. – Samarqand shahri. 2014 yil 15-16 may.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012. – 40 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. 1997.
8. O'zbekiston Respublikasi Kadrlash tayyorlash milliy dasturi. 1997.
9. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va optimallashtirilgan o'quv dasturi(Tarix fani). – T., 2010.
10. Jo'rayev U va boshq. Tarixdan hikoyalar. 5-sinf uchun darslik. – T.: 2011.
11. XTVning "Dars Muqaddas" metodik tavsiyasi, - T.: 2011 yil 15 oktabr.
12. Sa'dullayev A. Tarix. 6-sinf uchun darslik. – T.: 2013.
13. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. 7-sinf uchun darslik. – T.: 2013.
14. Usmonov Q. va boshq. O'zbekiston tarixi. 8-sinf uchun darslik. – T.: 2014.
15. Jo'raev U. va boshqalar. Jahon tarixi. 8 – sinflar uchun darslik. –T.: 2014

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1. www.press-servis.uz
2. www.lex.uz
3. www.uzedu.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.ref.uz
6. www.e-tarix.uz
7. www.kitob.uz

MUNDARIJA

<u>Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar. To'xtasinov Muhammad</u> – Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi.....	3
<u>Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi. Mamajonova Zulfiya</u> – Kosonsoy tumani 18-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi.....	9
<u>O'zbekistondagi eng qadimiy tarixiy shaharlar. N. Xoshimova</u> - Norin tuman 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.....	13
<u>Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati. Hayitova Shahnoza</u> – Kosonsoy tuman 38-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.....	17
<u>Arablar hukumronligiga qarshi xalq harakatlari. Akbarova Halimaxon</u> – Namangan shahar 31-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi	20
<u>Amir Temur bunyodkorlik faoliyati. Sultonova Yodgora</u> – Chust tuman 41-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.....	23
<u>"Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni. Razzoqov Shamsiddin</u> – Mingbuloq tuman 6-sonli maktabi oliy toifali o'qituvchisi.....	28
<u>XVI-XIX asrning 70-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Afg'oniston. Qoriyev Abdumalik</u> – ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi.....	37
<u>Buyuk ipak yo'li. Ismatullayeva Muhayyo</u> – Uchqo'rg'on tuman 42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix o'qituvchisi.....	44
<u>Hindiston sivilizatsiyasi. M. Dedamirzayeva</u> – Chortoq tuman 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar.....	56
Foydalanilgan internet saytlari.....	56

